

# Hamshiralik parvarishi

bo‘yicha ko‘nikmalarни

baholash testi

## O‘rganish matni

— Hamshiralik parvarishi/  
Yapon tilida hamshiralik  
parvarishi —

O‘zbekcha versiyasi

Yaponianing litsenziyaga ega  
parvarishlovchi xodimlar assotsiatsiyasi  
2024-yil, mart



---

## はじめに

本書は、厚生労働省の補助事業（介護の日本語学習支援等事業）を活用して、介護分野の特定技能1号の評価試験に対応する初めての学習用テキストとして策定したものです。

2019年4月に施行された在留資格「特定技能」の制度は、深刻化する人手不足に対応するため、生産性向上や国内人材の確保のための取組を行ってもなお人材を確保することが困難な状況にある産業上の分野において、一定の専門性・技能を有する外国人材を受け入れる制度です。

介護分野において特定技能の在留資格で入国するためには、国際交流基金が実施する日本語基礎テスト等の日本語試験のほか、厚生労働省が実施する介護技能評価試験と介護日本語評価試験を受験し、合格することが基本となります。

今後、試験の実施国は拡大されていく予定ですので、介護分野で特定技能により入国される方は、さらに増えていくことが見込まれます。そこで本書は、介護技能評価試験と介護日本語評価試験に対応できるようにしつつ、介護現場で働く上で、最初に習得しておいていただきたい内容を中心に作成いたしました。

本書は、介護技能評価試験と介護日本語評価試験の受験対策として活用されることに加え、特定技能の在留資格で入国して介護現場で働く皆様が、引き続き本書を手元に置き、ご活用いただけるような構成にしています。

本書が、「日本の介護」を知る契機となり、その魅力を存分に感じていただくものになること、さらに、介護分野の特定技能により入国して介護現場でご活躍いただく際の一助となることを切に願っております。

公益社団法人 日本介護福祉士会  
特定技能評価試験対応テキスト検討会

---

## Bu kitobdan qanday foydalanish kerak

“Hamshiralik parvarishi bo‘yicha ko‘nikmalarni baholash testini o‘rganish matni — Yapon tilida hamshiralik parvarishi bo‘yicha ko‘nikmalar/hamshiralik parvarishi” — bu hamshiralik parvarishi bo‘yicha ko‘nikmalarni baholash testiga tayyorgarlik ko‘rish va yapon tilini baholash bo‘yicha testga tayyorgarlik ko‘rish uchun o‘rganish lozim bo‘lgan matndir.

- Bu kitob hamshiralik yo‘nalishi bo‘yicha standartlarga mos keladigan ixtisoslashtirilgan ko‘nikmalarga mos kelish uchun “Hamshiralik parvarishi bo‘yicha ko‘nikmalar” va “Yapon tilida hamshiralik parvarishi” bo‘limlaridan iborat.
- Hamshiralik parvarishi bo‘yicha ko‘nikmalarni baholash testi yapon tilida olinishi munosabati bilan, “Yapon tilida hamshiralik parvarishi” bo‘limida faqat yapon tilidan foydalilanildi.

“Hamshiralik parvarishi bo‘yicha ko‘nikmalar” bo‘limi test savollariga muvofiq ravishda 4 qismga bo‘lingan.

1-QISM Hamshiralik parvarishi asoslari

2-QISM Aql va tana fiziologiyasi

3-QISM Muloqot ko‘nikmalari

4-QISM Kundalik parvarishni amalga oshirish bo‘yicha ko‘nikmalar

● Kitobda muqaddam bemorlar parvarishi bilan shug‘ullanmagan bo‘lsangiz ham, vaziyatni ko‘z oldingizga keltirishingizda yordam beradigan ko‘rgazmali rasmlar mavjud.

● Alovida ahamiyatga ega bo‘lgan ma’lumotlar belgi bilan belgilab qo‘yilgan.

● Murakkab atamalar uchun tushuntirishlar keltirilgan.



Osonroq ko‘chirish  
uchun butun tanangizni  
ishga soling.

Atamalar izohi

### Tayanish uchun asos

Tayanish uchun asos deganda tanani to‘g‘ri ushslash maqsadida odamning har bir tayanch nuqtasini oyog‘i ostidagi sirt bilan bog‘lash natijasida hosil bo‘lgan maydon tushuniladi. Agar inson oyoqlarini ochgan xolda tursa, bu uning oyoqlarini tashqi tomondan o‘rab turgan joy hisoblanadi.

“Yapon tilida hamshiralik parvarishi” yapon tilini tabiiy ravishda savollarga javob berish orqali yaxshiroq tushunishingizda yordam beradi.

Yapon tilida hamshiralik parvarishi bo‘yicha ko‘nikmalarni baholash testini o‘rganish matni bemorlarni parvarishlash muassasalarida yapon tili bilim darajangiz yetarli ekanini tasdiqlash uchun ishlab chiqilgan. Parvarishlash muassasasida yapon tilida faoliyat olib borish uchun zarur bo‘lgan bilimga ega bo‘lish maqsadida yapon tilida hamshiralik parvarishini o‘rganish, shuningdek, yapon tilini bilish darajasini aniqlash uchun Japan Foundation Test for Basic Japanese yoki Japanese-Language Proficiency Test materiallarini o‘zlashtirish yanada samaraliroqdir.

- Mazkur bo‘limda parvarishlash muassasalarida tez-tez ishlatiladigan “So‘zlar” (lug‘at), “Murojaat etish va muloqot” (savollar), hamda “Jumlalar” (savollar) boblari keltirilgan.
- “Murojaat etish va muloqot” hamda “Jumlalar” boblaridagi savollar parvarishlash muassasalarida tez-tez ishlatiladigan jumlalardan foydalanib tuzildi.

## MUNDARIJA

はじめに .....	1
Bu kitobdan qanday foydalanish kerak .....	2

## Hamshiralik parvarishi bo'yicha ko'nikmalar

QISM 1

### Hamshiralik parvarishi asoslari

- BOB 1** Hamshiralik parvarishida inson qadr-qimmati va mustaqilligi ..... 10
- BOB 2** Parvarishlovchi xodimlarning roli va kasbiy odobi ..... 16
- BOB 3** Hamshiralik parvarishida xavfsizlikni ta'minlash va xavf-xatarni boshqarish ..... 24

QISM 2

### Aql va tana fiziologiyasi

- BOB 1** Aql va tana mexanizmi haqida tushuncha ..... 42
- BOB 2** Hamshiralik parvarishiga muhtoj odamlar haqida tushuncha ..... 68
  - Qarish haqida umumiy tushuncha
  - Kasallik, nogironlik, faoliyat buzilishi haqida asosiy tushunchalar
  - Aqliy zaiflik (demensiya) haqida asosiy tushunchalar

QISM 3

## Muloqot ko‘nikmalari

- BOB 1** Muloqot asoslari ..... 98
- BOB 2** Mijozlar bilan muloqot ..... 102
- BOB 3** Jamoa a’zolari bilan muloqot ..... 114

QISM 4

## Kundalik parvarishni amalga oshirish uchun Ko‘nikmalar

- BOB 1** Sayr qilish, ko’tarish, ko’chirish bilan bog’liq holatlarda hamshiralik parvarishi ..... 120
- BOB 2** Ovqatlanish paytida hamshiralik parvarishi ..... 144
- BOB 3** Hojat paytida hamshiralik parvarishi ..... 152
- BOB 4** O’ziga qarashda hamshiralik parvarishi ..... 170
- BOB 5** Yuvinish, pokiza saqlanishda hamshiralik parvarishi ..... 186
- BOB 6** Uy ishlarini bajarishda hamshiralik parvarishi ..... 198

## Yapon tilida hamshiralik parvarishi

### So‘zlar va iboralarni yodlang!

- Inson tanasi ..... 204
- Holat ..... 206
- Kasalliklar/Belgilar ..... 207

### Sayr qilish, ko‘tarish, ko‘chirish bilan bog‘liq holatlarda hamshiralik parvarishi

- So‘zlar ..... 208
- Savollar (Murojaat etish va Muloqot qilish) ..... 209

### Ovqatlanish paytida hamshiralik parvarishi

- So‘zlar ..... 213
- Savollar (Murojaat etish va Muloqot qilish) ..... 215

### Hojat paytida hamshiralik parvarishi

- So‘zlar ..... 219
- Savollar (Murojaat etish va Muloqot qilish) ..... 220

### O‘ziga qarashda hamshiralik parvarishi

- So‘zlar ..... 224
- Savollar (Murojaat etish va Muloqot qilish) ..... 225

## **Yuvintirish, pokiza saqlashda hamshiralik parvarishi**

- So‘zlar ..... 230  
Savollar (Murojaat etish va Muloqot qilish) ..... 231

## **Uy ishlarini bajarishda hamshiralik parvarishi**

- So‘zlar ..... 238  
Savollar (Murojaat etish va Muloqot qilish) ..... 239

## **Jumlalar**

- So‘zlar ..... 245  
Savollar (Jumlalar) ..... 247

## **Javoblar**

- Savollarga javoblar: “Murojaat etish va muloqot qilish”  
“Jumlalar” ..... 271  
Javoblar varaqasi ..... 272

Yapon tilini o‘rganishda “Nihongo o Manabou”  
veb-sahifasi taqdimoti



# Hamshiralik parvarishi asoslari

- BOB 1** Hamshiralik parvarishida inson qadr-qimmati va mustaqilligi
- BOB 2** Parvarishlovchi xodimlarning roli va kasbiy odobi
- BOB 3** Hamshiralik parvarishida xavfsizlikni ta'minlash va xavf-xatarni boshqarish

# 1

# Hamshiralik parvarishida inson qadr-qimmati va mustaqilligi

## 1 Inson qadr-qimmatini ta'minlashga qaratilgan hamshiralik parvarishi

### 1) Inson qadr-qimmati va inson huquqlarini hurmat qilish

- Hamshiralik kasbi – bu yoshi va/yoki nogironligi tufayli kundalik hayotda qiyinchilikka duch keladigan odamlarga odatiy turmush tarzini davom ettirishda ularga yordam beruvchi mutaxassislik kasbidir.
- Yordamni amalga oshirishda inson qadr-qimmati asosiy tushuncha hisoblanadi.
- Inson qadr-qimmati har bir inson shaxs sifatida hurmat qilinishini anglatadi.
- Inson hamshiralik parvarishiga muhtoj bo‘lishiga qaramasdan hurmat qilinadi va uning inson huquqlari himoya ostidadir.

### 2) Insonlarbop kundalik hayot tarzi

- Kundalik hayot tarzi har bir insonda fikrlash doirasi (dunyoqarashi) va odatlariga qarab farq qiladi. Hatto hamshiralik parvarishiga muhtoj bo‘lsa ham, inson o‘zining kundalik hayotiga o‘zi yetakchilik qiladi.
- Insonning qay tarzda yashashni xohlashini inobatga olgan holda, uning hayoti va fikrlash tarzini hurmat qilish, shuningdek odatiy kundalik hayotida ko‘maklashish – hamshiralik parvarishining asosi hisoblanadi.

## ● Turfa xil hayot tarzlari



### 3) TSD (Turmush sifati darajasi)

- TSD inson kundalik hayoti va turmush sifati darajasini ifodalaydi. TSD – baxt, hayotdan qoniqib, o‘z maqsadiga ega bo‘lib yashash kabi ma’naviy boylikni o‘z ichiga olgan tushunchadir.



#### **4) Normallashtirish (me'yorga keltirish)**

- Normallashtirish – bu nogironlarning, hayotda ziyon ko'rmagan holda va o'z inson huquqlari hurmat qilingan holda xuddi sog'lom odamlar singari, normal yashashini nazarda tutadigan tushunchadir.
- Bu shuningdek, jamiyat yoki aholi orasida nimalargadir toqat qilib emas, balki o'zlarining normal hayot tarzini saqlagan holda odatiy turmush tarzini davom ettirishiga ham taalluqli.

## **2 Mustaqil bo'lishni qo'llab-quvvatlash**

#### **1) O'z-o'ziga mustaqil bo'lishiga yordam berish**

- O'z-o'ziga mustaqil bo'lishgayordamberish–insonningo 'zigama' qulbo 'lganturmushtartzini tanlab, bu haqda qaror qabul qilganidan so'ng, uni qo'llab-quvvatlash deya talqin qilinadi. Nafaqat harakatlanish, kiyinish va boshqa jismoniy harakatlarga taalluqli qo'llab-quvvatlash, balki uning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda yordam ko'rsatish ham tushuniladi.
- Inson qadriyatlari konsepsiyasiga va uning o'ziga xos jihatlariga hurmat bajo keltirgan holda, insonga o'zining irodasi va imkoniyatiga tayangan holda qiladigan ishlari sonini ko'paytirishi uchun yordam ko'rsatiladi.



## 2) Mustaqil tanlov va o‘z taqdirini o‘zi belgilash


- Inson o‘zining kundalik turmushida o‘zi yetakchi hisoblanadi. U o‘z qadriyatlari va shu paytgacha amal qilgan turmush tarziga muvofiq nimani qanday qilishni o‘zi hal qiladi.
- Mustaqil bo‘lishning ikki turi mavjud: jismoniy va ma’naviy. U hamshiralik parvarishiga muhtoj bo‘lgan taqdirda ham, odatdagidek hayot kechirishi uchun mustaqil ravishda kundalik turmush tarzi va uslubini tanlaydi va bu borada bir qarorga keladi.



### 3 Kundalik hayot haqida tushuncha

#### 1) Kundalik hayotda faoliyatning qanday turlari mavjud?

- Kundalik hayotdagi faoliyat turlari mamlakat, madaniyat va urf-odatlarga qarab farq qiladi. Insonlarning irodasi, qadriyatlari hamda ularning nimalarga nisbatan qat'iy talabchan ekanligiga qarab turli xil turmush tarzlari mavjud.
- Odamlar tongda uyg'onib, kiyimlarini almashtirib, yuz-qo'lini yuvib, nonushta qilib, hammomga kirib, dush qabul qilib, ko'ngilochar tadbirdorda qatnashib, hayot ritmiga muvofiq uyquga ketishadi.



- Insonning salomatligi, uy-joyi, uy yumushlarini bajarish qobiliyati, oilasi, mahalliy hudud va jamiyat uning hayoti bilan chambarchas bog'liqdir.

#### 2) Kundalik hayot tarzida parvarishlovchi xodimlar tomonidan yordam beriladi

- Parvarishlovchi xodim parvarishlanuvchi insonning turmush tarzini to'liq anglab yetgan holda uning odatiy turmushdagi faoliyatida yordam beradilar.
- Inson parvarishga muhtoj bo'lgan paytda fikrlash hamda harakatlanishida, odatda, sustlashib qoladi. Parvarishlovchi xodim parvarishlanuvchi insonning irodasini rag'batlantirish ustida ish olib boradi.



## 2

# Parvarishlovchi xodimlarning roli va kasbiy odobi

1

## Parvarishlovchi xodimlarning kasbiy odobi

### 1) Maxfiylikka riox qilish

- Mijozning badani yuvinish va hojatga chiqish paytida yalang'och holda bo'ladi. Parvarishlovchi xodim mijozni xijolatga qo'ymaslik uchun uning shaxsiy hayotini inobatga olishi muhimdir.

### 2) Maxfiylikni saqlash

- Parvarishlovchi xodim mijozga tegishli yordam ko'rsata olishi uchun u haqida ma'lumot olishi zarur. Shu bilan birga, mijozning shaxsiy ma'lumotlarini (yoshi, manzili, kasallik tarixi va h.k.) uning ruxsatisiz boshqalarga oshkor qilmasligi kerak.
- Parvarishlovchi xodim mijozning ruxsatisiz u haqidagi ma'lumotlarni internet tarmog'i, ijtimoiy tarmoqlar va boshqalarda tarqatmasligi lozim.



### 3) Jismoniy cheklashni taqiqlash

- Jismoniy cheklash deganda mijozning jismoniy harakatlanishini cheklash tushuniladi.

#### ◎ Jismoniy cheklashning nojo‘ya ta’sirlari


Jismoniy cheklash jismoniy imkoniyatlar pasayishi va mijozda aqliy zaiflik belgilarining kuchayishi kabi nojo‘ya ta’sirlarga olib keladi.

#### ● Jismoniy cheklovni o‘z ichiga oluvchi davolash muolajalariga misollar

- (1) Tana, qo‘l va oyoqlarni bog‘lab, harakatni cheklash.



- (2) Mijoz yotoqdan mustaqil turib ketmasligi uchun to’shak atrofiga xavfsizlik tirkamalarini qo‘yish.




- (3) Mijozni ichkarida ushlab turish maqsadida eshikni qulflab qo‘yish.



- (4) Mijoz tik holda tura olmasligi uchun unga harakatni cheklovchi belbog‘ taqib qo‘yish.



- (5) Psixotrop dori vositalarini me’yordan ortiqcha miqdorda berish.



## 4) Tajovuz

- Tajovuz deganda mijoz huquqlarining buzilishi tushuniladi.

### ● Tajovuzning beshta turi

#### (1) Jismoniy tajovuz

Mijoz tanasiga nisbatan zo'ravonlik.



#### (2) Ruhiy tajovuz

Mijoz ruhiyatiga jarohat yetkazadigan tarzda gapirish va o'zini tutish.



#### (3) Hamshiralik parvarishini qilishdan bo'yin tov lash va h.k. (Beparvolik)

Hamshiralik parvarishiga muhtoj odamni qarovsiz qoldirish.



#### (4) Moddiy tajovuz

Mijozdan noqonuniy tarzda moddiy manfaat olish.



#### (5) Jinsiy tajovuz


Mijozga nisbatan nomaqbul xatti-harakatlar qilish.



## 2 Kasbdoshlar bilan hamkorlik

### 1) Jamoaviy yondashuv

- Parvarishlovchi xodimlardan tashqari, boshqa turli soha vakillari o‘z tajribasiga tayangan holda mijozga qarovchi jamoa bo‘lib ishlaydi.



## 2) Boshqa kasb turlarining roli va vazifalari

### (Tibbiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar)

Tibbiy faoliyat tibbiy bilim va ko‘nikmalar asosida olib boriladi. Umuman olganda, parvarishlovchi xodimlar tibbiy faoliyat bilan shug‘ullanmaydilar. Shifokor va hamshiralar tibbiy faoliyatni amalga oshiradilar.

#### ● Shifokor



Shifokor tashxis qo'yadi va kasalliklarni davolaydi.

#### ● Hamshira



Hamshira shifokor ko'rsatmalariga amal qiladi, bemorlar salomatligini tiklashda va ularga tibbiy parvarishni amalga oshirishda shifokorga yordamlashadi.

### (Reabilitolog mutaxassislar)

Reabilitolog mutaxassislarga funksional tiklash bo‘yicha mashg‘ulotlar va h.k. o‘tkazadigan fizioterapevtlar, ergoterapevtlar va logopedlar kiradi.

#### ● Fizioterapevt (FT)



Fizioterapevt jismoniy imkoniyatlardan kelib chiqqan holda piyoda yurish kabi mashg‘ulotlar o‘tkazadi.

#### ● Ergoterapevt (ET)



Ergoterapevt kundalik turmushda bajarilishi lozim bo‘lgan mashg‘ulotlar o‘tkazadi.

#### ● Logoped (L)



Logoped talaffuz va ovqat yutishda qiynaladigan mijozlar uchun mashg‘ulotlar o‘tkazadi.

## (Diyetolog mutaxassislar)

Kasalligi tufayli ovqatlanish tarzi, kaloriyalar va hokazolarga alohida e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan mijozlar mavjud. Litsenziyaga ega diyetolog – bu oziq-ovqatlar va ovqatlanish ratsionini tuzuvchi mutaxassisidir.

### ● Litsenziyaga ega diyetolog



Litsenziyaga ega diyetolog ozuqaviy jihatdan muvozanatli parhezlar tuzadi.

## (Ijtimoiy farovonlik bo'yicham maslahat beruvchi va o'zgartirishlar kirituvchi mutaxassislar)

Parvarish bo'yicha ish yurituvchilar va ijtimoiy xizmatchilar – bu mijozlarga ko'mak ko'rsatish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiquvchi, maslahat beruvchi hamda mijozlar ijtimoiy va boshqa xizmatlardan foydalanganda xizmatlarga tegishli o'zgartirishlar kirituvchi mutaxassislardir.

### ● Parvarish bo'yicha ish yurituvchi

### ● Ijtimoiy xizmatchi (sertifikatga ega ijtimoiy xizmatchi va h.k.)



Parvarish bo'yicha ish yurituvchi/ijtimoiy xizmatchi mijozlarga maslahat berish, ularning oilasi bilan aloqada bo'lib turish va o'zgartirishlar kiritish bilan shug'ullanadi.

### 3

## Parvarishlash xizmatlari

### 1) Parvarishlash xizmatlari haqida umumiylumot

Parvarishlash xizmatlarining bir nechta turlari mavjud.

#### (1) Patronaj yordamida parvarish qilish

- Parvarishlash xodimlari va boshqalar parvarishni amalga oshirishi uchun mijozlarning uylariga tashrif buyuradilar.
- Patronaj parvarishi (uyga tashrif orqali yordam ko'rsatish) va boshqa parvarish turlari ham mavjud.

#### (2) Parvarishlash muassasalariga tashrif buyuradiganlar uchun parvarishlash xizmati

- Xizmat parvarishlash muassasalarida kunduzgi ish vaqtি oralig'ida ko'rsatiladi.
- Kunduzgi parvarish (kunduzgi xizmat) va boshqa xizmatlar ham mavjud.

#### (3) Parvarishlash muassasalarida yashayotganlar uchun ko'rsatiladigan parvarishlash xizmati

- Xizmat parvarishlash muassasalarida yashayotganlar uchun ko'rsatiladi
- Davlat qaramog'iga olingan, muruvvat uylarida yashovchi, uzoq muddatli parvarishga muhtoj (qariyalarni intensiv davolash uylari) va h.k. mavjud.

(1) Patronaj yordamida parvarish qilish




Uyda yordam ko'rsatish  
xizmatlari va h.k.

(2) Parvarishlash muassasalariga tashrif  
buyuradiganlar uchun parvarishlash xizmati



Mijoz xonadoni  
Kunduzgi xizmat va h.k.

(3) Parvarishlash muassasalarida yashayotganlar uchun  
ko'rsatiladigan parvarishlash xizmati



Qariyalarni intensiv davolash uylari va h.k.

## 2) Parvarish jarayoni

- Parvarishlovchi xizmatchilar parvarishni parvarishlanuvchining mustaqil bo‘lishini qo‘llab quvvatlashga qaratilgan rejaga muvofiq amalga oshiradi.
- Parvarishlash jarayonida parvarish rejasini har bir mijoz uchun alohida ishlab chiqiladi.


### ● Parvarishlash jarayoni tartibi

#### (1) Tahlil



Mijoz haqida ma'lumot yig'ing va kundalik hayotidagi muammolarni tahlil qiling.

#### (2) Parvarish rejasini ishlab chiqish



Mijoz uchun taklif etilayotgan parvarishlash rejasining tarkibiy qismlarini tuzing.

#### (4) Baholash



Parvarishlash rejasini tarkibiy qismlari mijoz uchun mos kelishkelmasligini baholang.

#### (3) Parvarish rejasini amalga oshirish



Parvarishlash rejasiga muvofiq mijozni parvarish qiling.

# 3

# Hamshiralik parvarishida xavfsizlikni ta'minlash va xavf-xatarni boshqarish

## 1 Parvarish paytida xavfsizlikni ta'minlash

### 1) Kuzatuvning ahamiyati

#### ◎ Kuzatuv deganda nima tushuniladi?

Kuzatuv deganda mijozni sinchkovlik bilan ko'zdan kechirib, uning holatini baholash tushuniladi.

Odatdagidan farqli ko'rinmoqda.....  
Qanaqasiga?



#### ◎ Kuzatuvning ahamiyati

Parvarishlovchi xodim kuzatgan narsalar mijoz turmush tarzining yaxshilanishi uchun xizmat qiladi.

Kuzatilgan narsalar yozib boriladi va butun jamoaga ulashiladi.

#### ◎ Kuzatuv usuli

- (1) Mijoz bilan yaqin muloqot orqali olinadigan ma'lumotlar mavjud.
- (2) Tekshirish, o'lchash va h.k. yordamida olinadigan ma'lumotlar mavjud.

Menimcha badaningiz issiq.  
Haroratingizni o'lchab ko'ray-chi.



Uning tanasi issiq...

## 2) Parvarishlash xodimlari salomatligini nazorat qilish

### ◎ Parvarishlovchi xodimlarning o‘z salomatligini o‘zlari nazorat qilishining ahamiyati

Parvarishlovchi xodim o‘z salomatligini saqlashi lozim. Parvarishlovchi xodim o‘zi sog‘lom bo‘lmay turib, mijozni parvarish qila olishi mumkin emas.



### ◎ Salomatlikni saqlash uchun (Bel og‘rig‘ining oldini olish)

Parvarishlovchi xodim bel og‘rig‘iga duchor bo‘lishi hech gap emas. Shu sababli ehtiyyot bo‘ling. Bel og‘rig‘ining oldini olish uchun mustahkam bilimga ega bo‘lish va bu bilimlarni to‘g‘ri qo‘llashni bilish kerak.


#### ● Qad-qomat holati va bel og‘rig‘i

<p>Tananing tayanch mexanizmlarini ishga solgan holda bel og‘rig‘ining oldini olish mumkin.</p>	<p>Buyumlarni bu kabi ko‘tarish, odatda, belning pastki qismida yuklama tushishiga olib keladi.</p>

### 3) Tananing tayanch mexanizmlari tamoyillarini ishga soling

- Piyoda yurish, ko‘tarish va ko‘chirishda mijozga yordam bergen paytda uning xavfsizligini ta’minlash va parvarishlovchi xodimga nisbatan yuklamani kamaytirish lozim.
- Tana mexanikasi deganda suyaklar va mushaklarimiz o‘rtasidagi bog‘liqlik asosida tananing harakatlanishi tushuniladi. Tananing mexanikasi tamoyillarini ishga solib, kam miqdorda kuch sarflagan holda hamshiralik parvarishini amalga oshirishingiz mumkin.

(1) Tayanch yuza kengroq bo‘lishini ta’minlang va tortishish kuchi markazini pastga tushiring.




Hassadan foydalangan holda tayanch asosni kengaytirish va barqarorlikni oshirish mumkin.

#### Atamalar izohi

### Tayanish uchun asos

Tayanish uchun asos deganda tanani to‘g‘ri ushslash maqsadida odamning har bir tayanch nuqtasini oyog‘i ostidagi sirt bilan bog‘lash natijasida hosil bo‘lgan maydon tushuniladi. Agar kishi oyoqlarini ochgan holda tursa, tayanch asos uning oyoqlarini tashqi tomoni atrofidagi joy hisoblanadi.


(2) Parvarishlovchi xodim va mijozning og'irlilik markazlarini bir-biriga yaqinlashtiring.



Mijozga yaqin turgan holatda bo'lsangiz, parvarishni kamroq kuch sarflagan holda amalga oshirishingiz mumkin.



(3) Son kabi yirikroq mushaklarni ishga soling.




Son va boldir kabi yirik mushaklar ishga solinmoqda.

Xodim qutini tizza bo'g'imlarini yozgan holda tik turib, faqat belning pastki mushaklari yordamida ko'tarmoqda.


Parvarishni yirikroq mushaklarni ishga solish orqali yengilroq amalga oshirishingiz mumkin.




(4) Mijozning qo'l va oyoqlarini, rasmda ko'rsatilganidek, tanasining markaziga yaqinlashtiring.




(5) Mijozni "itarmang", aksincha o'zingizga "torting".



(6) Tortishish markazingizni imkon qadar gorizontal ravishda siljiting.




(7) Tanangizni burmang. Oyoq barmoqlarini buyumni itarayotgan tomonga qarata yo'naltiring.



Tanangizni bursangiz, belingizga katta yuklama tushadi.



(8) Dastak tamoyilini ishga soling.




Dastak hosil qiling va kichik miqdordagi kuchni katta kuchga aylantiring.



## ◎ Bel og'rig'inining oldini olish bo'yicha tavsiyalar

- Mijoz imkoniyatlaridan foydalaning: Mijozning jismoniy holati qoniqarli ekaniga ishonch hosil qiling va uning imkoniyatlaridan foydalaning.
- Yordamchi moslamalardan foydalaning: Ko'taruvchi moslama, sirpantiruvchi taxta va h.k. dan foydalaning.
- Tana mexanikasini ishga soling.
- Turmush tarzini qayta ko'rib chiqing: Yetarli miqdorda mashg'ulotlar bajarish, to'g'ri ovqatlanish va hordiq chiqarish muhimdir.



Ko'tarish



Sirpantiruvchi taxta

## ◎ Ruhiy salomatlikni boshqarish

Parvarish xodimlarining parvarishlash ishlarini amalga oshirishlari uchun ularning ruhiy salomatligini saqlash lozim. Siz xavotirlanishingiz va tashvishlanishingiz mumkin, biroq barchasini ichingizga yutishingiz kerak emas.

Aqlan va jismonan sog'lom bo'lish uchun odatiy hayot kechirishingiz zarur.

### ● Ruhiy salomatlikni qanday saqlash lozim



Ovqatlanish va uyqu uchun  
qulay vaqtini belgilang.



Stressdan xalos bo'lishning  
o'zingizga qulay bo'lgan  
yo'lini toping.



Kattalar va hamkasblaringiz  
bilan muloqot qiling/  
maslahatlashing.

## 4) Yuqumli kasalliklar va ularni nazorat qilish choralar

### ◎ Yuqumli kasalliklar haqida umumiyl tushuncha


Yuqumli kasalliklar patogen mikroorganizmlarning inson organizmiga kirib, turli kasallik belgilari namoyon bo'lishiga olib keladigan kasalliklardir.

Mijozlar kasalliklarga nisbatan pastroq chidamlilikka ega. Bundan tashqari, odamlar birga yashaganida kasallik yuqish ehtimoli yuqori bo'ladi.

Shuning uchun har bir parvarishlovchi xodim yuqumli kasalliklar haqida bilimga ega bo'lishi lozim.



Kasalliklarga chidamliligi past bo'lgan odamlarda yuqumli kasalliklarga chalinish ehtimoli yuqori bo'ladi.



Sog'lom odam yuqumli kasalliklarga chidamliroq bo'ladi.

### ◎ Patogen mikroblarning turlari

Patogen mikroblar – viruslar, bakteriyalar, zamburug'lar, parazitlar va boshqalardir.

### ◎ Kuzatuvning ahamiyati

Yuqumli kasalliklar yuqishini nazorat qilish maqsadida mijozlarni kuzatish muhim ahamiyat kasb etadi. Kuzatuv mobaynida isitma, qayt qilish, ich ketishi, qorin og'rig'i, toshma toshishi yoki yuzning oqarishi kabi belgilar kuzatilsa, bu haqda shifokorlarga xabar berish lozim.


## ◎ Yuqumli kasalliklarning uch omili/nazorat choralarini tamoyillari

Yuqumli kasalliklarning uch omili – bu infeksiya manbai, yuqish yo‘li va infeksiya yuqqan tana. Uchala omil birlashganda yuqumli kasallik tarqaladi.

Infeksiyani nazorat qilish tamoyili – zanjirni uzishdan iborat.

Zanjirni quyidagi usullar yordamida uzish mumkin: (1) Infeksiya manbasini bartaraf etish orqali; (2) Yuqish yo‘llarini to‘sish orqali; va (3) insonning kasallikka bo‘lgan chidamliligini oshirish orqali.

## ● Yuqumli kasalliklarning uch omili/bartaraf etish tamoyillari



Infeksiyani nazorat qilishning uchta asosiy qoidasi mavjud.

- (1) Infeksiyani olib kirmaslik.
- (2) Infeksiyani olib chiqmaslik.
- (3) Infeksiyani tarqatmaslik.

## ● Infeksiya yuqish yo‘llarining turlari

<p>Tomchi orqali yuqadigan infeksiya</p> <p>Gripp va h.k.</p>	<p>Havo-tomchi yo‘li bilan yuqadigan infeksiya</p> <p>Sil, qizamiq va h.k.</p>	<p>Aloqa orqali yuqadigan infeksiya</p> <p>Norovirus, ichak tayoqchasi O-157 va h.k.</p>
---	--	--

## ● Infeksiya manbalari turlari



Qon



Tanadan ajraluvchi  
suyuqliklar (so'lak, burun  
balg'ami va h.k.)



qayt qilingan massalar,  
peshob, najas va h.k.

## ● Standart ehtiyyot choralar

Asosiy g'oya shundan iboratki, har bir bemorga tegishli “qon, tana suyuqliklari, ajralmalar, qayt qilingan mahsulotlar, peshob, najas, yaralar, teri, shilliq pardalar va h.k. larga yuqumli kasallik manbasi sifatida qaralishi lozim”.

Hech qachon qon, tana suyuqliklari, qayt qilingan mahsulotlar, peshob, najas va hokazolarni himoyalananmagan qo'lllar bilan ushlamang. Hamshiralik parvarishini amalgalash va qo'llarini qayt qilingan mahsulotlarni qopishishni unutmang.

## ● Ishlatiladigan vositalarga misollar


Qo'lqoplar



Fartuk




Niqob



Qo'lqop kiyishingizdan qat'i nazar, qo'llaringizni yuvishingiz lozim.

## ● Niqobni to‘g‘ri taqish usuli



Burundan tortib iyagingizgacha yuzingizni berkiting.

### ◎ Bir martalik qo‘lqoplarni qanday almashtirish lozim

- Ifoslangan qismini ichkariga ag‘dargan holda tashlang.
- Maxsus ajratilgan joyga tashlang.
- Har bir amaldan so‘ng ularni almashtiring.

### ◎ Qo‘llarni qanday yuvish kerak va nimalarni yodda saqlab qolish kerak

Qo‘llaringizni oqayotgan suv, suyuqsovun va spirtli antiseptik vosita yordamida yuvishingiz lozim.


## ● Tez ifoslanuvchi qismlar



- Qo‘l yuvilishida eng ko‘p toza bo‘lmaydigan sohalar
- Qo‘l yuvilishida ko‘pincha toza bo‘lmaydigan sohalar

Tez ifoslanuvchi qismlar – bu barmoq uchlari, barmoq oralari, qo‘llarning ustki qismi, bosh barmoqlar tagi va bilakkardir.

● Qo'llarni oqayotgan suvda suyuq sovun bilan yuvish



(1) Uzuk va qo'l soatingizni yeching.



(2) Oqayotgan suvda qo'llaringizni chaying.



(3) Kaftingizga kerakli miqdorda suyuq sovun tomizing.



(4) Quyuq ko'pik hosil bo'lishi uchun qo'llaringizni bir-biriga ishqlang va yaxshilab yuvинг.



(5) Kaftingiz bilan boshqa qo'lingiz ustki qismini ishqlab yuvинг (ikkala qo'lni ham).



(6) Ikkala qo'lingizdagi barmoqlar orasini ishqlab yuvish uchun qo'llaringizni ustma-ust qo'ying.



(7) Qo'lingizning bosh barmog'ini boshqa qo'lingiz bilan o'rab oling va ishqlab yuvинг (ikkala qo'lni ham).



(8) Barmoq uchlarini birlashtirgan holda ikkinchi qo'lingiz kaftiga ishqlab yuvинг (ikkala qo'lni ham).



(9) Ikkala bilagingizni ham yaxshilab ishqlab yuvинг.



(10) Oqayotgan suvda yaxshilab chaying.



(11) Qo'lni yaxshilab quritish uchun namlikni qog'oz salfetka yordamida artib tashlang.

## ● Spirli antiseptik bilan qo'lni artish



(1) Qo'llaringiz ko'zga tashlanarli darajada kir bo'lsa, avval yuqorida tavsiya qilingan tartibga rioya qilgan holda qo'lni suyuq sovun bilan yuving.



(2) Barmoqlaringizni biroz buking va kerakli miqdorda purkaluvchi antiseptik eritmadan seping va qo'llaringizga ishqalang.



(3) Bir qo'lingizning kaftini boshqa qo'lingiz kaftiga ishqalang.



(4) Barmoqlaringiz uchi va barmoqlarning ustki qismini boshqa qo'lingiz bilan ishqalang (ikkala qo'lni ham).



(5) Kaftingiz bilan boshqa qo'lingiz ustki qismini ishqalab yuving (ikkala qo'lni ham).



(6) Ikkala qo'lingizdagи barmoqlar orasini ishqalab yuvish uchun qo'llaringizni ustma-ust qo'ying.



(7) Qo'lingizning bosh barmog'ini boshqa qo'lingiz bilan o'rab oling va ishqalab yuving (ikkala qo'lni ham).



(8) Ikkala bilagingizgacha yaxshilab ishqalab yuving.



(9) Quriguncha ishqalang.

## 5) Baxtsiz hodisalarning oldini olish va xavfsizlik choralar

Mijozlarda keksalik va nogironlik tufayli baxtsiz hodisalarga moyillik mavjud bo‘ladi.

### [Yiqilib tushish va qoqilib ketishning oldini olish]

Mijoz kundalik hayotidagi piyoda yurish/ko‘tarish/ko‘chirish harakatlarini ko‘p bajaradi va bu vaqtda yo‘q joydan baxtsiz hodisa ro‘y berishi mumkin.

- **Bemor holatini sinchkovlik bilan ko‘zdan kechiring.**



Ba’zan mijoz o‘zi odatda bajara oladigan narsalarni bajara olmay qoladi.

- **Mijoz kiyimlari va poyabzali to‘g’ri kiyilganiga ishonch hosil qiling.**



Shippaklar osongina yechilib ketishi va ularni kiygan inson sirpanib ketishi mumkin. Agar shim juda uzun bo‘lsa, uni kiygan inson pojchalarga o‘ralib qolishi mumkin.

- **Yordamchi moslamalarni ishlatish oldidan tekshiring.**



Ishdan chiqqan moslamalardan foydalanish baxtsiz hodisaga sabab bo‘lishi mumkin.

## ● Atrof-muhit xavfsiz ekaniga ishonch hosil qiling.



Nam polda sirpanib ketish oson.



Simga o'ralashib, yiqilib ketish oson.

## ◎ Xavf-xatarni boshqarish

Xavf-xatarni boshqarish deganda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatarni bashorat qilish, tashkilot sifatida qatnashish va baxtsiz hodisalarning oldini olish yo'lida faoliyat olib borish tushuniladi. Xatarni bashorat qilish hamda oldi olinishi mumkin bo'lgan barcha narsaning oldini olish haqida o'ylash muhim ahamiyat kasb etadi.

Qaydlarni tegishlicha yuritib borish xatarlarni aniqlashda yordam beradi. Baxtsiz hodisalarning oldini olish uchun qaydlarni yuritib borish muhim.

## ● Xavf-xatarni boshqarishga oid muayyan misollar



(1) Mijoz yotoq joyidan nogironlar aravachasiga o'tirayotganida, yiqilib ketishiga sal qoldi.



(2) Nega bunday bo'lgani haqida fikr yuriting.  
⇒ Aravachaning tormozi faollashtirilmagan edi.  
⇒ Hodisani yozib qo'ying.



(3) Oldini olish choralar  
⇒ Keyingi safardan boshlab doimo aravachaning tormozi faollashtirilganiga ishonch hosil qiling.  
⇒ Ushbu ma'lumotni boshqalar bilan ham ulashing.

### ◎ Tabiiy ofatlarga tayyorgarlik ko'rish choralari

Tabiiy ofat deganda yer qimirlashi, to'fon, yong'in va h.k. tufayli ko'rilgan zararga aytiladi. Muassasalar va aholi muntazam ravishda tabiiy ofat hamda favqulodda vaziyatlarda hamkorlikda ish olib boriladi. Hatto kutilmagan ofat paytida ham vahimaga tushmaslik uchun ofatga tayyor turishlik muhim ahamiyat kasb etadi.

#### ● Kerakli anjomlarni hozirlang.



#### ● Favqulodda vaziyat mashg'ulotlarini o'tkazing.





## Aql va tana fiziologiyasi

**BOB 1** Aql va tana mexanizmi haqida tushuncha

**BOB 2** Hamshiralik parvarishiga muhtoj odamlar haqida tushuncha

- Qarish haqida umumiyl tushuncha
- Kasallik, nogironlik, faoliyat buzilishi haqida asosiy tushunchalar
- Aqliy zaiflik (demensiya) haqida asosiy tushunchalar

## 1

# Aql va tana mexanizmi haqida tushuncha

1

## Ong mexanizmi haqida tushuncha


### 1) Ong haqida tushuncha

Har bir shaxs o‘zining hissiyotlari va g‘oyalariga ega. Hissiyotlar, g‘oyalar va ularni ifodalash yo‘llari har bir insonda turlicha bo‘ladi.

Farq insonning fe’l-atvori, o‘tkazgan hayoti va olgan ta’limi bilan bog‘liqdir. Hissiyot, g‘oyalar yosh o‘tishi bilan o‘zgarib boradi va his-tuyg‘ular hamda iroda ko‘rinishida ifodalanadi.

Parvarishlash xodimi boshqalarning hissiyotlarini tushuna bilishi kerak.

### His-hayajon




Ong holatidagi o‘zgarishlar yuz ifodasi va kayfiyatda ko‘rinadi.

## (Iroda)

Iroda deganda biror ishni ijobiy amalga oshirish haqida paydo bo‘ladigan ruhiy holatga aytildi. Parvarishlovchi xodimlar mijozlarni iroda bilan yashashlarida yordam beradi.

### ● Iroda



## (Stress)

Stress deganda tana va asab taranglashuvi tushuniladi. Shovqin, noqulay harorat va boshqa jismoniy omillar, toliqish, uyquning kamligi, ochlik va organizmga tegishli boshqa omillar, bezovtalik, qo‘rqish, hayajon, insonlar orasidagi munosabatlар va boshqa ruhiy/ijtimoiy omillar stressga sabab bo‘lishi mumkin.

### ● Stress sabablari



## (Xotira)

Xotira deganda narsalarni esdan chiqarmagan holda yodda saqlash qobiliyati tushuniladi.

### ● Eslab qolish jarayoni



### ● Xotira turlari

Qisqa muddatli xotira Vaqtinchalik xotira		
Uzoq muddatli xotira Uzoq muddat saqlanadigan xotira	Epizodik xotira	Boshdan o'tgan kechinmalar va esda qolarli voqealarni o'z ichiga olgan xotira
	Semantik xotira	Bilimlar xotirasi
	Boshlang'ich xotira	Ongsiz ravishda esga tushadigan xotira
	Protsedur-muolajaviy xotira	Tananing esida qolgan xotira

## (Ehtiyojlar)

Ehtiyoj — insonning biror narsaga ega bo‘lishni xohlagan ong holatidir.

Ruhshunos A.X. Maslou inson ehtiyojlarining besh pog‘onali piramidasini (Maslouning besh pog‘onali ehtiyojlar piramidasi) targ‘ib qilgan.

### ● Maslouning besh pog‘onali ehtiyojlar piramidasi



## 2 Tana mexanizmi haqida tushuncha

### 1) Tiriklik mexanizmi/gomeostaz (tana harorati, nafas olish, yurak urishi, qon bosimi va h.k.)

#### ◎ gomeostaz

Gomeostaz – bu hatto atrof-muhitda o‘zgarish bo‘lishiga qaramasdan tananing bir xil muvozanatni ushlab turishga harakat qiladigan tanadagi biologik tizimdir.

Bunga misol qilib atrof-muhit havo harorati ko‘tarilishi hisobiga tana harorati oshganda terlash orqali tanadagi issiqlikni chiqarib tashlash uchun terlash orqali tanani normal haroratga qaytarish vazifasini bajaradigan funksiyani keltirish mumkin.

#### ● Gomeostazning vazifalari



#### (Tiriklik belgilari)

Tiriklikning muhim belgilari deyilganda tana harorati, nafas olish, puls, qon bosimi kabi tiriklik belgilari tushuniladi. Bu ko‘rsatkichlar salomatlik holati va boshqa barcha noodatiy o‘zgarishlarni aks ettiradi.

##### (1) Tana harorati

- Tana harorati kundalik ritmga ega. U kunduzgi soatlarda yuqoriyoq va kechki payt uxmlayotganingizda pastroq bo‘ladi.
- Insonlar o‘rtasida katta tafovut mavjudligi tufayli, tana harorati ham hammada har xil bo‘ladi.

● Tananing harorat o'chanadigan qismlari va eslab qolish zarur bo'lgan nuqtalar

Qo'lting



Termometr uchini  
qo'lting ostiga  
qo'ying.




Harorat o'chanashda  
qo'lingizni  
tanangizga mahkam  
yopishtirgan holda  
ushlab turing.

Agar odam sholdan aziyat  
chekayotgan bo'lsa,  
haroratni shol bo'lmagan  
tomonida o'chang.



Boshqalar



Haroratni peshona yoki qulog ichida  
o'chanadigan termometrlar mavjud.

## (2) Nafas olish

- Nafas olish deganda tanaga kislorod qabul qilib, karbonat angidrid chiqarish tushuniladi.
- Nafas olish muntazam va ongsiz ravishda amalga oshiriladi.
- Nafas olish tezligi odamning yoshi, ayni damdagi faoliyati, aqliy holati, jismoniy holati hamda betob yoki yo‘qligi kabi turli omillarga bog‘liq.
- Odamda nafas olishda qiynalish va/yoki balg‘am bor-yo‘qligi hamda g‘alati ovozlar eshitayotgani yoki yo‘qligini tekshiring.
- Agar odamda nafas yetishmovchiligi kuzatilayotgan bo‘lsa, uning lablari va tirnoqlari ko‘kimir siyohrangga kiradi. Bu holat sianoz deb ataladi.


### ● Nafas olish ritmining to‘lqin shakli



### (3) Puls

- Puls – qonning yurak urishi hisobiga qon tomirlar bo‘ylab harakatlanishidir.
- Umuman, yosh qancha kichik bo‘lsa, puls shuncha yuqori bo‘ladi. Yosh ulg‘aygan sari puls pasayib boraveradi.
- Puls odamning yoshi, ayni damdagagi faoliyati, ruhiy holati, jismoniy holati hamda kasallik bor yoki yo‘qligi kabi turli omillarga bog‘liq.
- Puls soni va ritmi, shuningdek u kuchli yoki kuchsiz ekanini tekshiring.

#### ● Pulsni tekshirish nuqtalari.



Pulsni nafaqat chakka sohasi, bo‘yin, tirsak sohalarida, balki bilakning ichki tomoni, chanoq va to‘piq sohasida ham aniqlashingiz mumkin.


#### (4) Qon bosimi

- Qon bosimi – yurakdan chiqqan qonning qon tomirlar (arteriyalar) devoriga ko‘rsatadigan bosimidir.
- Qon bosimi kun davomida o‘zgarib turadi.
- Qon bosimi odamning yoshi, ayni damdagi faoliyati, ruhiy holati, jismoniy holati hamda kasallik bor yoki yo‘qligi kabi turli omillarga bog‘liq.
- Uzoq muddatli gipertenziya serebrovaskulyar va/yoki yurak kasalliklari paydo bo‘lishi ehtimolini oshiradi.

#### ● Yurak va qon bosimi holatlarining o‘zaro , bog‘liqligi

##### Yurak sistoliyasi

Qon bosimi: yuqori




##### Sistolik qon bosimi (qon bosimining eng yuqori ko‘rsatkichi)

Yurak qisqargan (sistola) paytdagi qon bosimi

##### Yurak diastolası

Qon bosimi: past



##### Diastolik qon bosimi (qon bosimining eng pastki ko‘rsatkichi)

Yurak bo‘shashgan (diastola) paytdagi qon bosimi

● Qon bosimi quyidagi hollarda ko'tariladi:



hayajonlanganda



yetarlicha uxlanmaganda




hojat kelgan payt kuchanganda



asabiylashganda


harorati keskin  
o'zgarganidakeskin jismoniy harakat  
qilgandaqistab hojatga borish (najas yoki  
peshob chiqarish) ehtiyoji tug'ilganida

● Gipertenziya hisobiga paydo bo'ladigan kasalliklar



## 2) Odam tanasining tuzilishi

- Odam tanasini bosh, bo‘yin, tana, qo‘llar va oyoqlar kabi qismlarga bo‘lish mumkin.



## [Asab tizimi]

Asab tizimini markaziy va periferik kabi asosiy qismlarga bo‘lish mumkin.


### ◎ Markaziy asab tizimi (bosh miya/orqa miya)

- Bosh miya tananing qolgan qismlaridan ma’lumot yig‘ib, uni tahlil qilib, qaror qabul qiladi hamda qolgan a’zolarga buyruq beradi.
- Orqa miya bosh miyaga ulangan bo‘lib, olingan ma’lumot asosida mustaqil tarzda qaror qabul qiladi, bosh miyadan boshqa tana a’zolariga va aksincha yo‘nalishda ma’lumot yetkazish bilan bog‘liq vazifasi asosida buyruqlar beradi.


### ◎ Periferik asab tizimi (bosh miya/orqa miya nervlari)

- Periferik nervlar bosh miya va tana a’zolari o‘rtasida ma’lumot almashinishini ta’minlaydi.

### ● Nervlarning taqsimlanishi



## ● Bosh miya qismlari va ularning vazifalari



## ◎ Vegetativ nervlar

- Vegetativ nervlar ongsiz ravishda ichki a'zolar vazifasini tartibga soladi. U simpatik va parasimpatik asab tizimlaridan iborat.
- Simpatik nervlar odam faol yoki bezovta, jahldor, stress holatida bo'lganida ishlaydi.
- Parasimpatik nervlar odam uyqu yoki dam olish paytidagi kabi tinch holatda bo'lganida ishlaydi.

## ● Vegetativ (simpatik va parasimpatik) nervlar faoliyati

<b>Simpatik nervlar (Harakat)</b>		<b>Parasimpatik nervlar (Hordiq)</b>
Puls ko'tariladi	Yurak	Puls pasayadi
Qisqaradi	Periferik qon tomirlar	Kengayadi
Ko'tariladi	Qon bosimi	Tushadi
Kengayadi	Ko'z qorachig'i	Qisqaradi
Harakatni kamaytiradi	Oshqozon-ichak trakti	Harakatlanishga undaydi
Bronxlar kengayishi	Nafas yo'li	Bronxlar qisqarishi
Ortadi	Terlash	Kamayadi




Vegetativ nervlar ichki a'zolar vazifalarini boshqaradi va h.k.  
Vegetativ nervlar to'g'ri ishlaganda yurak va tanangizning  
boshqa a'zolari turlicha aziyat chekadi.

## [Skelet tizimi]


- Odam skeleti katta va kichik suyaklar kombinatsiyasidan iborat.
- Suyaklarning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: (1) Tanani ko‘tarib turish; (2) Tayanch-harakatlanish tizimi rolini bajarish; (3) Ichki a’zolarni himoya qilish; (4) O‘zida kalsiy saqlash; va (5) Gematopoetik (qon hosil bo‘lishida ishtirok etish) funksiya.
- Fiziologik jihatdan odam umurtqasi S-simon shaklda egilgan.

### ● Odam skeleti chizmasi



## [Mushak tizimi]

- Mushak tizimi qad-qomatni ushlab turish, harakatlanish va ichki a'zolar shakllanishida ahamiyat kasb etadi.




## [Sezish a'zolari tizimi]

- Biz ko'rganimizda (ko'rish hissi), eshitganimizda (eshitish hissi), hid sezganimizda (hid bilish hissi), ta'm bilganimizda (ta'm bilish hissi) va paypaslaganimizda (paypaslash hissi) bizning sezish a'zolamiz turli signallarni qabul qiladi va ma'lumotlarni sezgi asab tolalari orqali miyaga yetkazadi.

### Ko'rish mexanizmi

#### (2) To'r parda

To'r parda – ko'z tubiga yopishib turadigan yupqa qatlamlili to'qimadir. U tasvirni aks ettiradi.




#### (1) Ko'z gavhari

Ko'z gavhari shaffof bo'lib, regbi koptogiga o'xshaydi. U obyektga diqqat markazini (fokus) jamlashda yordam beradi.

#### (3) Ko'rish nervlari

Ko'rish nervlari signallarni to'r pardadan miyaga uzatadi.

## ● Eshitish mexanizmi




## [Nafas olish tizimi]

Olingan havo nafas olish yo'llari orqali o'tadi. O'pkalarga kislorod qabul qilinib, nafas yo'llari orqali karbonat angidrid tashqariga chiqadi.

Nafas yo'li – bu burundan boshlab o'pkagacha bo'lgan havo yo'lidi.

### ● Nafas olish a'zolari



## ◎ Yo‘tal va balg‘am

- Bakteriya, uy changi va boshqa zarralar nafas olish yo‘llariga tushganda odam organizmi ularni yo‘tal va balg‘am yordamida chiqarib tashlashga urinadi.



Davomli yo‘tal va balg‘am rangining o‘zgarishi  
– kasallik belgisi hisoblanadi.

## [Yurak-qon tomir tizimi]

- Yurak-qon tomir tizimi butun tana bo‘ylab qon va limfa tomirlari orqali aylanadigan kislorod, oziq moddalar, chiqindi mahsulotlarini tashiydi.


## ◎ Yurak

- Odam yuragi to‘rt kameradan iborat.
- U doim qisqarib-bo‘shashadi va qonni nasos singari davomli ravishda haydab turadi.

## ◎ Qon tomirlari va qon

- Arteriyalar – tarkibida ko‘p miqdorda kislorod bo‘lgan qonni yurakdan butun tana bo‘ylab tashuvchi qon tomirlaridir.
- Venalar tarkibida ko‘p miqdorda karbonat angidrid va chiqindi mahsulotlari bo‘lgan qonni tananing barcha qismlaridan yig‘ib, yurak va o‘pkaga olib keladi.
- Kapillyarlar arteriyalar va venalar oralig‘idagi qon tomiri tarmoqlaridir.

## ● Kichik va katta qon aylanish tizimi



Kichik qon aylanish tizimida kislorodsiz qon kislorodliga aylanadi.

### ◎ Katta qon aylanish doirasi va kichik qon aylanish doirasi


Arterial qon arteriyalar bo'ylab, venoz qon venalar bo'ylab oqib, butun tana bo'ylab aylanadi va bu katta qon aylanish doirasi deb nomlanadi.

Qonning yurakdan o'pkalarga va yana yurakka qaytishi kichik qon aylanish doirasi deyiladi. Yurakning chap qorinchasidagi venoz qon o'pka arteriyasi orqali o'pkadagi gaz almashinuvida ishtirok etib, arterial qon o'pka venalari orqali yurakning chap bo'l machasiga qaytadi.

## [Ovqat hazm qilish tizimi]


- Odamning ovqat hazm qilish tizimi og‘iz bo‘shlig‘idan tortib chiqaruv teshigigacha bo‘lgan me’da-ichak trakti (qizilo‘ngach, me’da, ingichka ichak, yo‘g‘on ichak) hamda ovqat hazm qilish uchun fermentlar ishlab chiqaradigan a’zolardan tashkil topgan.
- Tizimda ovqat hazm bo‘ladi va so‘riladi, kerakli oziq moddalar singib, chiqindi mahsulotlar najas ko‘rinishida tashqariga chiqariladi.

### ● Ovqat oqimi va a’zolarning vazifalari




### [Peshob ajratish tizimi]

- Peshob ajratish tizimi organizmdagi suyuqlikni chiqarib tashlashga javobgar hisoblanadi.
- Peshob buyrakda hosil bo‘lib, peshob nayi orqali qovuqda to‘planadi. U vaqtincha qovuqda saqlanadi va peshob chiqarish kanali orqali tashqariga chiqariladi.



### [Endokrin tizim]

- Endokrin tizim bezlar tizimi bo‘lib, organizmning turli vazifalarini boshqaradigan gormonlarni ajratadi.




## [Immunitet tizimi]

- Immunitet organizmning tashqi muhitdagi mikroblar, viruslar va boshqa yuqumli kasallik qo‘zg‘atuvchilariga qarshi turish va tanani ulardan himoya qilish reaksiyasi hisoblanadi.
- Yashash tarzi va ruhiy holat immunitetni ko‘tarishi yoki pasaytirishi mumkin.

## ● Immunitetni ko‘tarishda turmush tarzi va ruh holatining ahamiyati

**Immunitetni  
ko‘tarishda quyidagi  
harakatlar yordam  
beradi:**

- Mo‘tadil mashqlar
- Ko‘proq kulish
- Tanani iliq holda saqlash
- Muvozanatli ovqatlanish



**Immunitet pasayishiga  
olib keluvchi omillar:**

- Qarish
- Yetarlicha uxlamaslik
- Toliqish
- Og‘ir jismoniy mashqlar
- Ruhiy stress

### 3) Hordiq va uyqu bilan bog'liq organizm mexanizmlari

#### 1. Hordiq va uyquga bo'lgan ehtiyoj

- Hordiq deganda faol bo'lish to'xtatilib, ruh va tanaga dam berish tushuniladi.
- To'g'ri hordiq chiqarish toliqishdan tiklanishda yordam beradi va baxtli hayot manbai sifatida xizmat qiladi.
- Uyqu miyaning muntazam dam olishiga yordam beradi. Bu ruh va tanangiz sog' bo'lishida muhimdir.

#### ● Sifatli uyquning foydali jihatlari



#### 2. Uyqu mexanizmi

- Har bir odamda 24 soatli siklni boshqarib, ritmni saqlaydigan ichki tana soati mavjud.
- Ichki tana soati tongda quyosh chiqishi bilan qayta ishga tushadi va odatiy ritmni saqlaydi.

### 3. Uyqu sikli

- Tungi uyqu sekin (chuqur) va tez (yuzaki) uyqu fazalarining takrorlanishidan hosil bo‘ladi.
- Chuqur uyquda miya dam olish holatida bo‘ladi. Yuzaki uyquda miya uyg‘oq holatga yaqin bo‘ladi. Aytilishicha, yuzaki uyqu vaqtida odam tush ko‘radi.

#### ● Chuqur uyqu



- Miya uxlamoqda.
- Tush ko‘rmaysiz.

#### ● Yuzaki uyqu



- Miya uxlagani yo‘q.
- Tushlar ko‘rasiz.

### 4. Keksalarda uyquning o‘ziga xos xususiyatlari

- Uyqu vaqtqi qisqarib boradi.
- Ularda chuqur uyqu davomiyligi qisqaradi va peshob chiqarish uchun hojatga chiqish ehtiyoji paydo bo‘lsa yoki biroz shovqin eshitilsa ham uyg‘onib ketishlari mumkin.

QISM 2

Aql va tana fizиologiyasi

BOB 1 Aql va tana mexanizmi haqida tushuncha

## 2

# Hamshiralik parvarishiga muhtoj odamlar haqida tushuncha


1

## Qarish haqida umumiy tushuncha

### 1) Qarish bilan bog'liq jismoniy va ruhiy o'zgarishlar haqida tushuncha

#### 1. Qarish nima?

Yosh o'tib borgani sari jismoniy va aqliy qobiliyatlar pasayib boradi. Bu qarish degani. Qarish barchada kuzatiladi.



#### (Qarish xususiyatlari)

- Alovida farqlar mavjud.
- Keksalar kasalliklarga ko‘proq moyil bo‘ladi.
- Hayot tarzi ta’sirini ko‘rish mumkin.

## 2. Qarish hisobiga ruhiy o'zgarishlar


Ruhiy o'zgarishlarga keksalarning o'tmishi, vaqt, biografiyasi va yashash muhiti ta'sir qiladi, bu har bir odamda bu o'zgarishlar har xil bo'lishining sababidir. Shuning uchun parvarish qilayotganingizda har bir inson o'zgacha ekanini tushunish lozim.

### (Ruhiy o'zgarishlar)

- **Xavotir va umidsizlik**


Xavotir va umidsizlik boshqalar qatori inson ilgari qila oladigan ishlarini endi qila olmasligi tufayli yuzaga keladi.

- **Yo'qotish va nochorlik hissiboshqalar qatori turmush o'rtoq'i, qarindoshi**  
yoki do'stining vafot etishi va hayotdagi o'rnining o'zgarishi hisobiga paydo bo'ladi.  
Ruhiy o'zgarishlar keksa odamlarni tushkunlikka tushishga moyilligini orttiradi.



### 3. Qarish tufayli jismoniy o'zgarishlar

Qarish tufayli tashqi ko'rinishda va tana ichkarisida o'zgarishlar ro'y beradi.



Keksa odam asoratlanish ehtimoli yuqori bo'lgan, davolanishiga ko'p vaqt ketadigan bir qator surunkali xastaliklardan aziyat chekadi.

## 2) Keksalarda ko'proq uchraydigan kasallik belgilari va kasalliklarning xususiyatlari

Keksalarda ko'proq uchraydigan kasallik belgilari suvsizlanish, isitma, qabziyat, shish, uyqusizlik, ehtiyojsizlik va yotoq yaralarni o'z ichiga oladi.

### ◎ Keksalarda kasalliklarning xususiyatlari

- Har bir odam bir qator kasalliklardan aziyat chekadi.
- Kasallik belgilari va h.k. borasida shaxsiy tafovutlar keng
- Keksa yoshdagи odamlarda surunkali tus oluvchi kasalliklarga chalinishga moyillik mavjuddir.
- Belgilari unchalik sezilmaydi (atipik belgilar).

### 3) Keksalarda ko'proq uchraydigan kasallik belgilari

#### Suvsizlanish

**Suvsizlanish deganda organizmda suyuqlik miqdori me'yoridan kam bo'lgan holat tushuniladi.**

Organizmda suyuqlik bir xil me'yorda ushlab turiladi, lekin suyuqlik qabul qilish va uni chiqarish o'rtaida muvozanat buzilganda suvsizlanish paydo bo'ladi.

**Sabablar:** Ich ketishi, quşish, isitma, terlash, suyuqliknı kam miqdorda qabul qilish va h.k.

**Belgilari:** Lab, og'iz bo'shlig'i, teri qurishi; peshob soni va peshob miqdorining kamayishi; qon bosimining past bo'lishi; yurak urishlar sonining yuqoriligi; tana haroratining yuqori bo'lishi va h.k.

#### Yodda tutish kerak bo'lgan hamshiralik parvarishi

- Mijoz namlik darajasini ushlab turing.
- Xona haroratini nazorat qiling.
- Mijozga yuvinishdan oldin va keyin, shuningdek, mashqlar paytida suyuqlik ichishi kerakligi ayting.
- Kuchli suvsizlanish o'limga olib kelishi mumkin. Mijozga tibbiy muassasaga tashrif buyurishini ayting.



#### ◎ Suyuqlik balansi

Qabul qilinadigan ovqat va ichimliklarni iste'mol qilish orqali suyuqliknı qabul qilish va uni chiqarish o'rtaida muvozanatning ushlab turilishi sog'lom hayotni ta'minlashga zamin yaratadi.

## Isitma

**Isitma bo‘lganda, tana haroratingiz me’yоридан баланд бо‘лади.**

Miyaning gipotalamusi tana haroratini boshqaradi.

**Sabablar:** Yuqumli kasalliklar, yallig‘lanish, suvsizlanish va h.k.

**Belgilari:** Isitmaning yuqori bo‘lishi, yuzning qizarib ketishi, quvvatsizlik, ishtahasizlik va h.k.

Yodda tutish kerak bo‘lgan hamshiralik parvarishi

- Mijoz namlik darajasini ushlab turing.
- Tana haroratini o‘lchang.
- Ba’zan keksalarda isitma belgilari sezilmaydi.
- Kasallikning boshqa belgilari bor-yo‘qligini tekshiring.



## Qabziyat

**Qabziyat – bu najasning yo‘g‘on ichakda uzoq muddat qolib ketish holatidir.**

Odatda, qabul qilingan ovqat 24-72 soat oralig‘ida najas ko‘rinishida chiqib ketadi.


**Sabablari:** Ichaklar faoliyatining susayishi, mushaklar kuchining yo‘qolishi, hojatga chiqish ehtiyojining kamayishi va h.k.

**Belgilari:** Ishtahasizlik, qorin og‘rig‘i, ko‘ngil aynishi va h.k.

Yodda tutish kerak bo‘lgan hamshiralik parvarishi

- Mijozdan kletchatkaga boy sabzavotlar iste’mol qilishini va o‘rtacha miqdorda jismoniy mashqlar bajarishini iltimos qiling.
- Mijozga har safar ovqatlanib bo‘lganidan keyin hojatga chiqishni odat qilishi kerakligini ayting.
- Qorinni yo‘g‘on ichak yo‘nalishi bo‘ylab uqalang.

### ● Qorinni yo‘g‘on ichak yo‘nalishi bo‘ylab uqalang.



## Shish


**Shish bu – ichki a'zolar vazifasining pasayishi va mushak quvvatining yo'qolishi hisobiga organizmda ortiqcha suyuqlik to'planishidir.**

**Sabablari:** Oyoqlardagi mushaklar quvvatining pasayishi, yurak va buyraklar faoliyatining pasayishi, keksalarda ozuqa yetishmovchiligi, uzoq muddat o'tirgan holatda bo'lish va h.k.

**Belgilari:** Vazn ortishi va h.k.

Yodda tutish kerak bo'lgan hamshiralik parvarishi

- Shish sohasi va darajasini ko'zdan kechiring.
- Sholdan aziyat chekayotgan odamda shish odatda zararlangan tomonida bo'ladi.
- Mijozga o'rtacha miqdorda mashqlar bajarishi va oyog'ini ko'tarishini iltimos qiling.
- Mijozda shish paydo bo'lishiga olib keluvchi kasallik bo'lsa, unga tibbiy yordam ko'rsatilishi lozim.



## Qichima (qichishish)

**Qichima – terida qichish holati paydo bo'lishidir.**

**Sabablari:** Qarish sababli teri qurishi, tana harorati va namligidagi o'zgarishlar, kiyim turlari va h.k.

**Belgilari:** Allergik reaksiya, toshma, qashlash izlari va h.k.

Yodda tutish kerak bo'lgan hamshiralik parvarishi

- Mijoz terisini namlang.
- Teriga shikast yetkazmaslik uchun ehtiyyot bo'ling va mijozda uyqusizlik rivojlanmasligini kuzatib boring. Infeksiya tushishi ehtimoli borligi sababli, tibbiy xodimlar bilan hamkorlikda ish tuting.

## Uyqusizlik

**Uyqusizlik** – bu odamning uyqu yetishmovchiligiga olib keluvchi yaxshi uyqudan to'laqonli qoniqmaslik, uyquga ketishda qiyinchilik kuzatilish va uyqu o'rtasida uyg'onib ketish holatidir.

**Sabablari:** Uyqu tarkibidagi o'zgarishlar va h.k.

**Belgilari:** Umidsizlik, toliqish, bezovtalik va h.k.

Yodda tutish kerak bo'lgan hamshiralik parvarishi

- Sirkad ritmni nazorat qiling.
- Mijoz uyg'onganida quyosh nuriga to'inishiga imkon yarating.
- Mijozni o'rta me'yordagi mashqlar bajarishga undang.
- Mijozga kunduzi uzoq vaqt uxlashdan tiyilishini iltimos qiling.
- Xona ichini saranjom holda saqlang.
- Mijozning kundalik turmushida muammolar paydo bo'lsa, tibbiyot xodimlari bilan hamkorlikda ish tuting.



## Xafaqonlik

**Xafaqonlik** – bu qon bosimining o'ta yuqori bo'lishi.

**Sabablari:** Yurak kasalliklari, buyrak kasalliklari, qon-tomirlarda qarish bilan bog'liq o'zgarishlar, parhez, mashqlar va boshqa turmush tarzi omillari.

**Belgilari:** Bosh og'rig'i, yurak tez urib ketishi va h.k.

Yodda tutish kerak bo'lgan hamshiralik parvarishi

- Hayot tarzini yaxshilashda yordam bering: Mijozni haddan tashqari ko'p ovqatlanmasik, ortiqcha tuz iste'mol qilmaslik va o'rta me'yorda jismoniy mashqlar bilan shug'ullanishga undang.
- Davolash usullari parhez tutish, mashqlar bajarish va dori vositalari bilan davolanishni o'z ichiga oladi.
- Uzoq muddat kechuvchi xafaqonlik o'z navbatida miya qon-tomir va yurak kasalliklariga olib keladigan arteriosklerozga sabab bo'ladi.

## 4) Keksalarda ko'proq uchraydigan kasalliklar

Keksalarda miya qon tomir, yurak kasalliklari, zotiljam, aspiratsion pnevmoniya, qandli diabet, osteoporoz va aqliy zaiflik ko'p uchraydi.

Hamshiralik parvarishini amalga oshirish uchun shifokor ko'rsatmalari talab etiladigan mijozlar mavjud.

### Miya qon tomir kasalliklari

**Miya qon tomir kasalliklari deganda bosh miya qon tomirlari bilan bog'liq kasalliklar tushuniladi. Bu holat qon tomirlar tiqilib qolishi va yorilib ketishi hisobiga vujudga keladi hamda miyaning jarohatlangan sohasiga qarab turli buzilishlarga olib kelishi mumkin.**

**Sabablari:** Sabablari ikkita katta guruhga bo'linadi:

- 1 Miya qon tomirlarining tiqilib qolishi (Ishemik insult).
- 2 Miya qon tomirlari yorilib ketishi (Gemorragik insult va h.k.).


**Belgilari:** Bosh og'rig'i, bosh aylanishi, ko'ngil aynishi, quşish, ong xiralashuvi, nafas olish buzilishlari, idrok o'zgarishi va h.k.

#### Yodda tutish kerak bo'lgan hamshiralik parvarishi

- Mijozda kuzatilayotgan kasallik belgilariga muvofiq hamshiralik parvarishini amalga oshiring.
- Bu hayot tarzi bilan bog'liq bo'lgani sababli ovqat va mashqlar miqdori va tarkibiga e'tibor qarating.

#### Ishemik insult

(Miya qon tomirlari tiqilib qolishi)



#### Gemorragik insult

(Miya qon tomirlari yorilib ketishi)



## Yurak kasalliklari

**Yurak kasalliklari qon tomirlari tiqilib qolishi va boshqa sabablarga ko'ra paydo bo'ladi.**

**Sabablari:** Xafaqonlik, qandli diabet, toj arteriyalaridagi o'zgarishlar va h.k.

- Yurak qon tomirlari torayadi (Stenokardiya).
- Yurak qon tomirlari tiqilib qoladi (Miokard infarkti).
- Yurak faoliyatining pasayishi kuzatiladi (Yurak yetishmovchiligi).

**Belgilari:** Stenokardiyadakislorodyetishmovchilighisobigako 'krakqafasidakeskinog' riqpaydo bo'ladi va h.k.

Miokard infarktida, yurak mushaklari nobud bo'lishi hisobigako 'krakqafasidakuchli og'riq paydo bo'ladi va h.k.


Miokard infarkti vujudga kelganda bo'g'ilish, yurak tez urishi, nafas yetishmasligi, bezovtalik, shish, vazn ortib ketishi, peshob hajmi kamayishi va h.k. kuzatiladi.

### Yodda tutish kerak bo'lgan hamshiralik parvarishi

- Shish va/yoki vazn ortib ketishida tuz va suyuqlik iste'mol qilishdan tiyilish lozim.
- Agar mijoz nafas olishda qiynalayotgan bo'lsa, yotoqda qolsin va yurakka tushayotgan yuklamani kamaytishga yordam beradigan tana holatiga (pozaga) o'tsin.

#### Stenokardiya

(Yurak qon tomirlari torayadi)



#### Miokard infarkti

(Yurak qon tomirlari tiqilib qoladi)



- Yurakka tushayotgan yuklamani kamaytishga yordam beradigan tana holati



## Zotiljam

**Zotiljam patogen mikroblarning o'pkaga tushishidir.**

**Sabablari:** Bakteriya yoki virus kabi mikroblar bilan zararlanish

**Belgilari:** Isitma, bezovtalanish, ishtahasizlik kabi umumiy belgilar

Yo'tal va balg'am ajralishi kabi nafas a'zolari kasalliklari belgilari.

Yodda tutish kerak bo'lgan hamshiralik parvarishi

- Mijozga yordam ko'rsatishga ijodiy yondashing, uning suvsizlanishini oldini oling va tanovul qilishi oson bo'lgan taomlar pishiring.
- Keksalarda kasallik belgilari ba'zan namoyon bo'lmasligi sababli, ehtiyyot bo'lish lozim.

## Aspiratsion zotiljam


**Aspiratsion zotiljam bakteriyalarining traxeya va/yoki bronxlarga ovqat yoki so'lak bilan birga noto'g'ri tushishi hisobiga vujudga keladi.**

**Sabablari:** Ovqat va suyuqlik qizilo'ngachga emas, traxeyaga ketib qoladi.

**Belgilari:** Isitma, yo'tal, balg'am, ishtahasizlik va h.k.

Yodda tutish kerak bo'lgan hamshiralik parvarishi

- Ovqatlanish vaqtida mijoz egallagan holatga (pozaga) e'tibor qarating. Ovqatlanib bo'lgach, darrov yotib olishiga yo'l qo'y mang. Buning o'mniga o'tirgan holatida qolishini iltimos qiling.
- Mijoz og'iz bo'shilig'ini parvarishlab turing.
- Kasallik belgilari aniq namoyon bo'lsa, tibbiyot xodimlari bilan hamkorlikda ish tuting.



## Qandli diabet

**Qandli diabet – qonda qand miqdori ortib ketishi hisobiga paydo bo‘ladigan metabolik (modda almashinuvi) kasalligidir.**

**Sabablari:** Qandli diabetning ikkita turi mavjud.

- Qandli diabetning 1-turida insulin ishlab chiqarilmaydi. Bunday bemorlar odatda yosh bo‘ladi.
- Qandli diabetning 2-turida insulin ishlab chiqarish kamaygan holda bo‘ladi. Bunday bemorlar odatda yoshi katta bo‘ladi. Bu ko‘p ovqatlanish, jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanmaslik, stress va h.k.lar tufayli kelib chiqadigan turmush tarzi kasalligi hisoblanadi.

**Belgilari:** Og‘iz qurishi, ko‘p suyuqlik ichish/peshobga chiqish, vazn tashlash, bezovtalik va h.k.

### Yodda tutish kerak bo‘lgan hamshiralik parvarishi

- Davolash usullari parhez tutish, mashqlar bajarish va dori vositalari bilan davolanishni o‘z ichiga oladi.
- Parhez tutishda kaloriya miqdorini past holda saqlang.
- Ovqatdan lazzatlanishni pasaytirmaslik uchun ijodiy yondashing.
- Davomiy giperglykemiya har qanday yara bitishini sekinlashtiradi.
- Asoratlar retinopatiya, buyrak kasalliklari, asab tizimi buzilishlarini o‘z ichiga oladi. Kasallik asoratlarining oldini olishda tibbiyot xodimlari bilan hamkorlikda ish tuting.

### ● Qandli diabet asoratlari



Asab kasalligi



Buyrak kasalligi



Retinopatiya

## Osteoporoz

**Osteoporoz – suyak massasining kamayishi hisobiga suyaklar sinishi xavfi vujudga keladigan kasallikkadir.**

**Sabablari:** Uzoq vaqt yotoqqa o‘rnashib qolish, kalsiy yetishmasligi va h.k.

Ayollarda ayollar gormoni miqdori kamaygan paytda moyillik ortadi.


**Belgilari:** Bukchayish, bo‘y pasayishi, bel pastida og‘riq bo‘lishi va h.k.

Bu kasallikka chalingan odamda suyaklar mo‘rtlashib, yiqilganida suyaklari sinishiga moyillik paydo bo‘ladi.

Yodda tutish kerak bo‘lgan hamshiralik parvarishi

- Mijozga kalsiyga boy mahsulotlar tanovul qilishini taklif qiling.
- Unga jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanishni va quyosh nuri olishini taklif qiling.
- Unga yiqilishning oldini olish uchun yashash muhitini yaxshilashni taklif qiling.


### ● Ko‘pincha keksalarda uchraydigan suyakning sinish sohalari.




## 2 Kasallik, nogironlik, faoliyat buzilishi haqida asosiy tushunchalar

### 1) Kasallik/nogironlik/funksiya buzilishi nima?

Nogironlar huquqlari haqidagi birlashgan milliy konvensiyaga (UNCRPD) muvofiq: Nogironlar uzoq muddatli jismoniy, ruhiy, intellektual yoki sensor buzilishlari bo‘lgan, turli to‘sirlarga duch kelganida ularning boshqalar qatori ijtimoiy hayotda to‘liq va samarali ishtirok etishlarida to‘sirlarga uchraydigan odamlarni o‘z ichiga oladi. Xalqaro layoqatlilik, salomatlik va nogironlik tasnifi (ICF) nogironlikning salbiy omillariga e’tibor qaratmasdan, unga insonlar salomatligi tavsifi sifatida qaraydi.



### ● ICF: Xalqaro layoqatlilik, salomatlik va nogironlik tasnifi




## 2) Nogironlik turlari, sabablari va tavsiflari

### [Jismoniy nogironlik]

Jismoniy nogironlik – bu insonda kasallik/baxtsiz hodisa tufayli oyoq-qo‘li/tanasining shikastlanishi va kundalik hamda ijtimoiy hayotda qiyinchiliklarga duchor bo‘lish holatidir.

Boshqa holatlar qatori, kasallik/baxtsiz hodisa oqibatida bu qo‘llar, oyoqlar, bosh miya yoki orqa miya nervlarining jarohatlanishi hamda kasalliklar va ularning oqibatlari sababli bo‘g‘imlar/umurtqa pog‘onasi deformatsiyasi/kontrakturasi tufayli vujudga keladi.

Kundalik faoliyatning murakkablik darajasi nogironlik sohasi va nogironlik darajasiga qarab har bir insonda har xil bo‘ladi. Ba’zan aqliy nogironlik motorika buzilishi bilan bir vaqtida ro‘y beradi. Mijozga mos keladigan hassa, nogironlik aravachasi, protez oyoq va boshqa yordamchi moslamalardan foydalaning.



#### Atamalar izohi

### ICF (Xalqaro layoqatlilik, salomatlik va nogironlik tasnifi)

ICF – bu inson umumiy holatini anglash bo‘yicha inson faoliyati va nogironligi tasnidir. Inson faoliyati kundalik hayot uchun zarur bo‘lgan qobiliyat, funksiya va atrof-muhitni, masalan, tana funksiyalari va tuzilmalari, amallar va ishtirokni bildiradi.


## [Ko‘rish qobiliyatining buzilishi]

Ko‘rish qobiliyatining buzilishi – bu insonda nogironlik tufayli ko‘rish qobiliyati va ko‘rish maydoni kabi narsalarni qay tarzda ko‘ra olishi bilan bog‘liq bo‘lgan kundalik va ijtimoiy hayotdagi qiyinchiliklarga duch kelishidir.


Buning sabablari – tug‘ma omillar (shu kasallik bilan tug‘ilganlar), kasalliklar, baxtsiz hodisalar va qarishdir. Qandli diabet sababli ko‘rish qobiliyatining buzilishi holatlari soni ko‘payib bormoqda.

Ko‘rish qobiliyatining buzilish darajasi butunlay ko‘r, yorug‘likni sezadigan va tor ko‘rish maydonidan aziyat chekayotgan odamlarni o‘z ichiga olgan holda hamma odamlarda farq qiladi.


### ● Ko‘rish qobiliyati buzilishi belgilari



Markaziy skotoma/  
ko‘rish maydoni nuqsoni



Ko‘rish maydonining  
torayishi



Bir tomonlama e’tiborsizlik  
(neglekt sindromi)

## [Eshitish qobiliyatining buzilishi]

Eshitish qobiliyatining buzilishi – bu quloqlardan eshitish markazigacha bo‘lgan yo‘lning buzilishi hisobiga eshita olmaslik yoki eshitishda qiyinchiliklar vujudga kelish holatidir. Eshitish qobiliyatining buzilishi eshitish darajasi, buzilish sohasi va buzilish ilk bor paydo bo‘lgan vaqtga qarab tasniflanadi.


Gipakuziya – eshitish qobiliyatining qisman buzilishi. Bunda muloqot moslamalari quloq apparati, yozishmalar, imo-ishoralar tili orqali muloqot qilish va lablardan o‘qish kabi vositalarni o‘z ichiga oladi.




Yozuv vositalari yordamida muloqot



Imo-ishora tili



Talaffuz (lab) dan o‘qish




Quloq apparati

## [Nutq buzilishi]

- Nutq buzilishi – bu insonning bosh miya til markazi va/yoki nutq a'zolari faoliyatining buzilishi hisobiga muloqot qilishda qiyinchilikka uchrash holatidir.
- Bu inson bosh miyasi til markazining jarohatlanishi tufayli “eshitish”, “gapirosh”, “o'qish”, va/yoki “yozish”da qiyinlashish holatidir.
- Muloqot usullari yozish, tasvirli kartochkalarni o'z ichiga oladi va buzilish holatiga qarab farq qiladi.

### ● Soqov mijoz



Odam nimadir demoqchi, lekin so'zi talaffuzini tugallay olmayapti.

## [Yurak faoliyatining buzilishi]


Yurak butun tana bo'ylab qonni hayday olmaydi.

Ba'zi mijozlarga yurak urishida muammolar mavjud bo'lganligi hisobiga ko'krak qafasiga kardiostimulyator o'rnatilgan bo'lishi mumkin.

**Yodda tutish kerak bo'lgan hamshiralik parvarishi**

- Kardiostimulyator o'rnatilgan ko'krak qafasiga kuchli zarba tegishi xavfi paydo bo'lganida mijoz mashg'ulotdan tiyilishiga ishonch hosil qiling.

## ● Sun'iy kardiostimulyator




## [Buyrak faoliyatining buzilishi]

Buyrak qonni filrlab, tozalay olmaydi.

Mijoz buyrak faoliyati buzilishida qonni tozalash maqsadida sun'iy dializ muolajasini qabul qiladi.

## ● Sun'iy dializ mexanizmi



**Yodda tutish kerak bo'lgan hamshiralik parvarishi**

- Dializ muoljasasi o'tkaziladigan kuni mijoz dush qabul qilishdan tiyilishi lozim.
- Mijoz dializ shunti o'rnatilgan tomondagи qo'li bilan og'ir yuk ko'tarmasligi kerak.
- Mijoz faqat cheklangan miqdorda tuz va suyuqlik qabul qilishi kerak.

## [Nafas olish a'zolari faoliyatining buzilishi]


Bu nafas olishda qiyinchilik yuzaga kelish holatidir.

Yetarli miqdorda nafas ololmaydigan mijoz oksigenoterapiya (kislород bilan davolash) qabul qiladi.

### ● Mobil kislород ingalyatori



### ● Kislород konsentratori



#### Yodda tutish kerak bo'lgan hamshiralik parvarishi

- Kislород konsentratoridan foydalanganda ochiq olovdan saqlaning.
- Yuqumli kasalliklar oldini olish muhim ahamiyat kasb etadi.
- Elektr quvvati ta'minoti uzelishi holatiga tayyor bo'lish uchun qo'shimcha batareya va h.k.larni tayyorlab qo'ying.


## [Qovuq/to'g'ri ichak faoliyatining buzilishi]

Bu qovuq/to'g'ri ichak kasalliklari tufayli peshob/najas chiqara olmaslik holatidir.


Teshikcha (stoma) najasni tanadan tashqariga chiqarish maqsadida qorinda jarrohlik yo'li bilan hosil qilinadi.

Sun'iy qovuq hamda sun'iy chiqaruv teshiklari mavjud. O'rnatish joyi kasallik turiga qarab belgilanadi.

### ● Sun'iy qovuq



### ● Sun'iy chiqaruv teshigi



Qurilmaning tashqi ko'rinishi

**Yodda tutish kerak bo‘lgan hamshiralik parvarishi**

- Parvarishlovchi xodim teshik (stoma) ustidagi qopchaga (xalta) yig‘ilgan chiqindilarni olib tashlaydi.
- Agar stoma atrofida toshma paydo bo‘lgan bo‘lsa, tibbiyot xodimlariga xabar bering.

**[Aqliy nogironlik]**

Aqliy nogiron bo‘lgan insonning aqliy rivojlanishi, umuman olganda, sekin kechadi. Agar unda kundalik hayot kechirishda qiyinchiliklar yuzaga kelayotgan bo‘lsa, unga biror maxsus yordam darkor.

**Yodda tutish kerak bo‘lgan hamshiralik parvarishi**

- Hayot bosqichiga muvofiq javob berilishi lozim.
- Mijoz holatini aniqlang va unga mos bo‘lgan parvarishni amalga oshiring.

**[Ruhiy nogironlik]**

Ruhiy nogironlik – bu inson ruhiy kasalliklar tufayli aqliy funksiyalar buzilishidan aziyat chekishi va kundalik ishlarni bajarishda hamda ijtimoiy hayotda yashashda qiyinchiliklarga duch keladigan holatdir. Agar holat jiddiy tus olguday bo‘lsa, inson qaror qabul qilish va xatti-harakatini nazorat qilish qobiliyatini sezilarli darajada yo‘qotadi. Ruhiy nogironlikka shizofreniya va kayfiyat o‘zgarishi bilan kechadigan kasalliklar kiradi.

Kasallikning ba’zi belgilari gallyutsinatsiyalar, delyutsiya hamda tushkunlikka tushish ko‘rinishida namoyon bo‘ladi.

**● Ruhiy nogironlik belgilari**

**● Delyutsiya**



Ovozli gallyutsinatsiyalar va delyutsiya paydo bo‘ladi.

**● Tushkunlik holati**



Kuchli siqilish, kamgaplik va kuchli tushkunlikka tushish holati.

**● Maniya holati**



G‘ayritabiyy quvnoqlik va ochiqlik holati.

### 3 Aqliy zaiflik (demensiya) haqida asosiy tushunchalar


#### 1) Aqliy zaiflik haqida tushuncha

Miya inson faoliyatini boshqaradi. Aqliy zaiflikda miyaning kognitiv faoliyati ayrim sabablarga ko‘ra pasayadi va bu kundalik hamda ijtimoiy hayotda qiyinchiliklar yuzaga kelishiga olib keladi.

#### Miya vazifalari

Aqliy zaiflikni tushunish uchun miyaning asosiy vazifalari haqida bilimga ega bo‘lish lozim. Miya faoliyatini pasayishi hayotda turli muammolar keltirib chiqaradi.

#### ● Bosh miyaning to‘rtta asosiy bo‘lagi va ularning vazifalari



## Aqliy zaiflik tushunchasi

### ● Kognitiv faoliyat nima?



Xotira  
(Yodlash/eslash)



Til  
(So'zlash/tushunish)



Harakat  
(Kundalik hayotdagi faoliyat)



Qabul qilish  
(Narsalarni taniy bilish)



Reja tuzing/narsalarni to'g'ri  
joylashtiring va h.k.

## **Esi og'ish va aqliy zaiflik o'rtasidagi farq**

Es og'ishi – aqliy zaiflikning asosiy belgilaridan biridir. Esi og'ish yosh o'tgan sari paydo bo'ladi, biroq bu aqliy zaiflikdan aziyat chekuvchilarnikidan farq qiladi.

### **● Es og'ishining har xil turlari**

<b>Yosh o'tishi bilan bog'liq es og'ishi</b>	<b>Aqliy zaiflik bilan bog'liq es og'ishi</b>
Voqealarning bir qismini unutish.	Voqealarni to'laligicha unutish.
Es og'ish rivojlanmaydi.	Es og'ish rivojlanadi.
Es og'ishini anglaydi.	Es og'ishini anglamaydi.
Es og'ishi hayotda hech qanday qiyinchilik tug'dirmaydi.	Es og'ishi hayotda qiyinchilik tug'diradi.

## **2) Aqliy zaiflikdan aziyat chekuvchi odamlarda parvarish amallari**

Aqliy zaiflikdan aziyat chekuvchi odamlarni parvarish qilishda:

(1) Mijoz nuqtayi nazaridan qarang

Mijozga yo'naltirilgan hamshiralik parvarishini amalga oshirish zarur.

(2) Mijoz hayotini tushuning

Barqaror hayot kechirishiga yordam berish zarurdir.

(3) Mijoz nimalar qila olishini aniqlaganingizdan so'ng parvarish qilishga kirishing

Mijozni qo'llab-quvvatlang, qobiliyatlarini yuzaga chiqaring, motivatsiya bering.

### 3) Aqliy zaiflikka (demensiya) asosiy sababchi kasalliklar, belgilar va h.k.

Aqliy zaiflikka sabab bo‘luvchi kasalliklar quyidagilarni o‘z ichiga oladi: (1) Alsgeymer kasalligiga xos bo‘lgan demensiya, (2) Qon tomir demensiyasi, (3) Levi tanachalari mavjud bo‘lgan demensiya va (4) Frontotemporal demensiya.

#### ● Aqliy zaiflikka asosiy sababchi kasalliklar, belgilar va h.k.

Tasnif	Miya holati	Asosiy belgilari va h.k.
(1) Alsgeymer kasalligiga xos bo‘lgan aqliy zaiflik	 Miya kichrayadi. Keksalik blyashkalari paydo bo‘ladi.	<ul style="list-style-type: none"> <li>Boshlanishi sekin bo‘ladi va sekin-astalik bilan rivojlanib boradi.</li> <li>Xotira buzilishi bilan boshlanadi.</li> <li>Ko‘pincha yaxshi kayfiyatda.</li> <li>Kasallik rivojlanishini sekinlashtiruvchi dori vositalari mavjud.</li> </ul>
(2) Qon tomir demensiyasi	 Miya qon tomir kasalliklari tufayli qon tomirlar tiqilib qoladi va hujayralarning bir qismi nobud bo‘ladi.	<ul style="list-style-type: none"> <li>Bosqichma-bosqich rivojlanadi.</li> <li>Gemiplegiya, nutq buzilishi va h.k.</li> <li>Bemor qila oladigan va qila olmaydigan ishlar bor.</li> </ul>
(3) Levi tanachalari mavjud bo‘lgan demensiya	 Levi tanachalari paydo bo‘ladi va ensa bo‘lagi kichrayib qoladi	<ul style="list-style-type: none"> <li>Mavjud bo‘lмаган narsalarni ko‘rish (gallyutsinatsiya).</li> <li>Braxibaziya va h.k. (Parkinson kasalligiga o‘xshash belgi)</li> <li>Uxlash va tush ko‘rish paytida baqiradi (uyqu buzilishlari) va h.k.</li> </ul>
(4) Frontotemporal demensiya	 Peshona va chakka bo‘laklari kichrayadi.	<ul style="list-style-type: none"> <li>Mulohaza qilishning va o‘zini ushlab turish hissining yo‘qolishi</li> <li>Shaxsiyatdagi o‘zgarishlar</li> <li>Bir qolipdagи amallar</li> <li>Quvnoqlik/tajovuzkorlik</li> </ul>

## 4) Aqliy zaiflik belgilari

Aqliy zaiflik belgilari quyidagicha tasniflanishi mumkin:


Asosiy belgilar: Miyadagi buzilish oqibatida.

Xotira buzilishi, kognitiv buzilish, ijro funksiyasi buzilishi, anglashning buzilishi/mulohaza qilishning buzilishi va h.k.

Aqliy zaiflikning xulq-atvor va psixologik belgilari (BPSD): Atrof-muhit, shaxsiyat, mijoz tabiat, insonlar o'rtasidagi munosabatlар va h.k. tufayli paydo bo'ladigan belgilar.

Xavotir/umidsizlik, gallyutsinatsiyalar/delyutsiya, quvnoqlik/tajovuzkor xulq-atvor va tentirab yurish va h.k.

### ● BPSD asosiy belgilari



## [Asosiy belgilar]

### (1) Xotiraning buzilishi

Xotira buzilishi deganda yangi faktlar va ma'lumotlarni eslab qololmaslik kasalligi tushuniladi. Bu aqliy zaiflikning asosiy belgilaridan biridir.

### (2) Kognitiv buzilishlar

Kognitiv buzilish deganda vaqt, joy va odamlarni tanimaslik kasalligi tushuniladi.

- Inson yarim kechasi uyqudan turib tashqariga chiqmoqchi bo'ladi.
- Inson o'z oila a'zolarini tanimaydi va ularga begonalardek qaraydi.

### (3) Ijro funksiyasining buzilishi

Boshqarish funksiyasi buzilishi kuzatilgan inson amallar bajarishni eslay olmaydi va turli xatti-harakatni bajara ololmay qoladi.

- Ovqat tayyorlash tartibini esidan chiqarib qo'yadi.

### (4) Anglashning buzilishi/mulohaza qilishning buzilishi

- Anglashning buzilishi/mulohaza qilishning buzilishi tufayli mulohaza qilish qobiliyatidan mahrum bo'ladi.
- Pul sanash qiyin mashg'ulotga aylanadi.

## [Aqliy zaiflikning xulq-atvor va psixologik belgilari (BPSD)]

### ◎ Xulq-atvorli belgilari

#### (1) Quvnoq/tajovuzkor xatti-harakat

Quvnoq/tajovuzkor xatti-harakat mijozning atrofdagi odamlar unga nima qilganini tushunmagani tufayli o'zini xavotirli his qilishi evaziga vujudga keladi. Fikr yuritilishicha, uning bunday tajovuzkor xatti-harakati atrofdagilarga undagi og'riq, peshobga, hojatga chiqish ehtiyoji va h.k. paydo bo'lganini bildirish uchun vujudga keladi.

#### (2) Tentirab yurish

Tentirab yurish – bu atrofda qandaydir maqsadni ko'zlab va /yoki inson bir joyda turolmaydigan qilib qo'yan qandaydir sabab tufayli tentirab yurishidir.

## ◎ Psixologik belgilari

Aqliy zaiflikka uchragan odamda xavotir va ong xiralashuvi bo‘ladi.

### (1) Gallyutsinatsiya

Gallyutsinatsiya deganda inson aslida mavjud bo‘lmagan narsani his qilishi tushuniladi.



### (2) Delyutsiya

Delyutsiya deganda aslida real bo‘lmagan narsalarga ishonishini anglatadi.



## ◎ Aqliy zaiflikka uchragan odam hamshiralik parvarishi ko'rsatilishidagi amallar

- Uning so'zlari va xatti-harakatini rad etmang. Ularni shunchaki qabul qiling.
- O'zini xavfsiz his qilishi uchun uni sinchkovlik bilan tinglang.
- Uning tushunish qobiliyatiga muvofiq tarzda tushunishi oson bo'lgan so'zlardan foydalangan holda gapiring.
- Uning tongdan uyqu paytigacha bo'lgan kundalik hayot ritmini tashkil qiling.
- Xavotirdan xalos bo'lishi uchun u bilan birgalikda fikrlang va harakat qiling.
- Xona va atrof-muhitni tez-tez yangilamaslik kerak.





## Muloqot ko‘nikmalari

- BOB 1** Muloqot asoslari
- BOB 2** Mijozlar bilan muloqot
- BOB 3** Jamoa a’zolari bilan muloqot

# 1

# Muloqot asoslari

## 1 Muloqotning ahamiyati


Muloqot deganda o‘zaro gaplashish, fikr, hissiyotlarni ulashish va h.k. tushuniladi.

Ikkinci tomon bilan mustahkam ishonchli munosabat o‘rnatish usuli sifatida muloqot ko‘nikmalarini o‘rganib olish lozim.

### ● Muloqot qanday kechadi

Bugun juda baxtiyor  
ko‘rinasiz.

Ha, aynan  
shunday! Aslida...



## 2 Muloqot usullari

Muloqot til ijobiy ravishda ishlataladigan og‘zaki (verbal) hamda til emas, balki imo-ishoralar va yuz ifodalari ishlataladigan noog‘zaki (noverbal) muloqot turlaridan iborat.

### 1) Verbal muloqot

Verbal muloqot nutq, imo-ishora, harf va belgilar yordamida qilingan suhbat orqali amalga oshiriladi.

#### ● Verbal muloqotga misollar



Nutq




Imo-ishora tili



Harflar va belgilar

## 2) Noverbal muloqot

Noverbal muloqot qo‘l va tana imo-ishoralari va yuz ifodasi yordamida amalga oshiriladi.



### 3 Muloqot ko'nikmalari


Munosabat o'rnatish uchun quyidagilarni yodda tuting.

#### ● Diqqat bilan tinglang.



- Diqqat bilan tinglash deganda suhbатdoshni sinchkovlik, aniqlik va ishtiyоq bilan tinglab, buni o'z kayfiyatida namoyon qilish tushuniladi.

#### ● Hamdard bo'ling.



- Hamdardlik deganda boshqalarning fikr va hissiyotlarni ulashish tushuniladi.
- Narsalarni ikkinchi tomon nuqtayi nazaridan tushunish va bunga urinish muhim ahamiyat kasb etadi.

#### ● Tasdiqlash



- Tasdiqlash deganda ikkinchi tomonning fikrlari va hissiyotlarini ularni inkor etmasdan yoki tan olmasdan qabul qilish tushuniladi.

## 2

## Mijozlar bilan muloqot

1

**Tinglash texnikasi (Ijobiy tinglash texnikasi)**

Parvarishlovchi xodimlar mijozlar hayotini yaxshilab borish maqsadida mijozlarning o‘zлari, oila a’zolari va boshqa mutaxassislar bilan muloqotda bo‘ladilar.


**1) Mijozning qadriyatlarini hurmat qiling.**

Har bir mijoz o‘zi yashab o‘tgan davr va muhitidan kelib chiqqan holda o‘z qadriyatlariga ega. Hamshiralik parvarishi bilan shug‘ullanuvchi xodimlar mijozlarning hissiyotlari, o‘ylari, g‘oyalari, va qadriyatlarini hurmat qilgan holda amalga oshiradi.

**2) Verbal muloqotda e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan jihatlar****[So‘zlarni topib gapirish]**

Parvarishlovchi xodimlar muloyimlik bilan so‘zlashni yodda saqlashi lozim.

Xayrli tong.



## [Savol berish texnikasi]

Parvarishlovchi xodimlar barcha kerakli ma'lumotlarni olish uchun mijozlarga tinmay savol berishi kerak emas. Buning o'rniiga ular mijozlar bilan o'zaro ikki tomonlama muloqot o'rnatishga intilishlari kerak.

Bular: (1) yopiq savollar va (2) ochiq savollar.

### (1) Yopiq savollar

Yopiq savol deganda ikkinchi tomon bitta so'zdan iborat, masalan "ha" yoki "yo'q", "A" yoki "B" dan iborat javob beriladigan savol tushuniladi. Ha deb yopiq savol beraversangiz, muloqot bir tomonli bo'lib qoladi.

### (2) Ochiq savollar

Ochiq savollar deganda ikkinchi tomon erkin tarzda javob bera oladigan "Siz nima deb o'ylaysiz?" va "Buni qanday qilmoqchisiz?" qabilidagi savollar tushuniladi. Iltimos, sababini aniqlash maqsadida "nega?" deya so'rashni davom ettiraversangiz, ikkinchi tomon o'zini aybdor qilinayotgani haqida o'ylashi mumkinligini inobatga oling.

### ● Savollarga misollar



## [Takrorlash]

Parvarishlovchi xodim mijoz aytgan gapni takrorlash orqali “Tinglayapman” degan ishora qilishi mumkin.

### ● Takrorlashga misollar



### 3) Noverbal muloqotda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan jihatlar


#### [Imo-ishoralar va yuz ifodasi]

Parvarishlovchi xodim mijozning imo-ishorasini va yuz ifodasini kuzatadi va kuzatuvga asosan u bilan muloqot qiladi.

#### [Ko'zga boqib muloqot qilish]

Parvarishlovchi xodim mijoz bilan ko'zga boqib muloqot qiladi. Ko'zga boqmasa, parvarishlovchi xodim mijozni tinglayotganini mijoz aniqlashi qiyin.

● **Qanday qilib nigohni suhbatdosh ko'zidan uzmasdan muloqot qilish mumkin?**



Suhbatdosh ko'zidan uzmasdan muloqot qilish



Agar parvarishlovchi xodim mijozga past nazar bilan qarasa, mijoz undan qo'rqishi mumkin.

**[Ohang]**

Mijozga ohistalik bilan orada tanaffus qilib, yumshoq ohangda gapiring.

**[Boshini egish va tasdiqlash]**

Boshni tepaga-pastga qilib tasdiqlagan holda “Gapingizga to‘liq qo‘shilaman” deyish – mijoz aytayotgan gaplarni diqqat bilan tinglayotganlik kayfiyatini uyg‘otadi.

**[Qad, qo'llar va tana imo-ishoralari]**

Parvarishlovchi xodim mijoz bilan yuzma-yuz muloqot qiladi.


- Agar kimnidir tinglayotganingizda qo‘l yoki oyoqlaringizni chalkashtirib o‘tirsangiz yoki stulda orqaga suyanib o‘tirsangiz, bu narsa insonda yomon taassurot qoldiradi.
- Qo‘llar va tana imo-ishorasi anglatadigan ma’no mamlakat va madaniyatdan kelib chiqqan holda sezilarli darajada farq qiladi.



## ● Qadni tutish bilan bog'liq nimalarni yodda saqlash lozim



Yuzma-yuz gaplasting



Qo'llarni chalkashtirish



Oyoqlarni chalkashtirish



Kresloga suyanish

### [Masofa saqlash/teginish]

Ba'zi mamlakatlarda o'zaro suhbat yaqinroq masofadan turib, tegingen holda amalga oshirilsa, yaqinlik hissi paydo bo'ladi.

Biroq Yaponiyada ko'pchilik odamlar, hatto ular yaqin do'st bo'lsa ham ,muayyan oraliq masofa saqlanganda o'zlarini qulayroq his qilishlari aytildi.

Biror kishiga teginish orqali yetkazilmoqchi bo'lgan xabar mazmuni vaqt, jadallik va soniga qarab qabul qiluvchi tomonidan turlicha qabul qilinishi mumkin.

### ● Teginishga misollar



Qo'lini ohistalik bilan ushlang va gapiring.

## 2 Tushuntirish va tasdiqlash (Tushuntirish berilgan holda rozilik olish)

Parvarishlovchi xodim mijozga odatiy hayotini kechira olsin uchun qarorlar qabul qilishda yorlam ko'rsatadi . Bunday yordam ko'rsatishda parvarishlovchi xodim quyidagilarni yodda tutishi lozim:

- (1) Variantlar taqdim eting.
- (2) Har bir variantning ustunlik va kamchiliklarini sinchkovlik bilan tushuntiring.
- (3) Mijoz o'z xohishiga ko'ra tanlovnini amalga oshirishiga imkon yaratting.

Mijoz o'z qarorini amalga oshirishi uchun, parvarishlovchi xodim uning tanlovinini hurmat qilgan holda unga yordam ko'rsatishi lozim.

## 3 Mijozning holatiga mos ravishda muloqot qilish

Mijozlarda kasallik yoki nogironlik tufayli atrofdagilar bilan muloqot qilishi qiyin bo'lgan kezlar bo'ladi. Parvarishlovchi xodim mijozning kasalligi yoki nogironlik holatidan kelib chiqqan holda unga mos bo'lgan muloqot usulini tanlashi muhim.

### 1) Nogironlikning turli xil xususiyatlariaga mos muloqotning ahamiyati

Ba'zida muloqot qilishga kasallik va nogironlik to'sqinlik qiladi. Parvarishlovchi xodim mijozga mos muloqotni o'rmatishda mavjud bo'lgan to'siqni aniqlash ustida ishlaydi.

Oxirgi yillarda AKT dan (axborot va kommunikatsion texnologiyalar) muloqot vositasi sifatida foydalanish ommalashib bormoqda.

## 2) Ko‘rishda kamchiligi bo‘lgan odam bilan muloqot qilish

### 1. 2) Ko‘rishida buzilish mavjud bo‘lgan odam bilan muloqot qilish xususiyatlari

Ko‘rishning buzilishi – bu odamning narsalarni ko‘ra olmasligi yoki bunda qiyinchilik bo‘lishi bilan bog‘liq kasallikdir. Inson ko‘rish orqali yetarli ma’lumotlarni ololmasligi tufayli yonidagi narsalar bilan o‘zi orasidagi masofani sezmaydigan va o‘zi turgan joyni bilmaydigan paytlar bo‘ladi.

### 2. Ko‘rishning buzilishi bo‘lgan odam bilan muloqot qilishda yodda saqlanishi lozim bo‘lgan jihatlar:

#### ◎ Ko‘rishdan tashqari boshqa yo‘l orqali qabul qilinishi mumkin bo‘lgan ma’lumot uzatish usulidan foydalaning.

Narsalarning xususiyatlari va turgan joyini aniq va batafsil tushuntirib bering va h.k. Bundan tashqari, ovoz ohangingiz va qanday tarzda gapi rayotganingizga e’tiborli bo‘lishingiz lozim.


Shuningdek, ma’lumot berishda predmetlarni mijoz bevosita ushlab ko‘rishini ta’minlash orqali insonga ko‘maklashishingiz mumkin.

#### ◎ Insonga ismi bilan murojaat qiling va shundan so‘ng unga gapiring

Agar parvarishlovchi xodim mijozga birorta so‘z aytmay teginsa, u hayratlanadi. O‘zingiz birinchi bo‘lib unga so‘z oching. Mijozga gapi rayotganingizda birinchi navbatda uni ismi bilan chaqiring.

Parvarishlovchi xodim o‘zini tanishtirishi ham katta ahamiyatga ega.

#### ● Insonga ismi bilan murojaat qiling va shundan so‘ng unga gapiring



## ◎ Turgan joy va yo'nalishni aniq tushuntiring

Turgan joyni tushuntirayotganingizda aniq gapiring. Masalan, “o'ng tomoningizga” va “ovozim kelayotgan tomon yo'nalishi bo'ylab” deb aytинг. Mijoz ovqat tanovul qilayotgan bo'lsa, unga ma'lum bir taom qayerda turganini aytmoqchi bo'lsangiz, buni kunning ma'lum soatidagi soat strelkasi yo'nalishida tushuntirishingiz mumkin. Bu usul “soat holati” deb ataladi.

### 3. Ko'rish imkoniyati cheklangan insonlar bilan muloqot qilishda yordamchi usullar va moslamalarga misollar


Ko'rish qobiliyati cheklangan mijoz holatiga mos keluvchi yordamchi vositalardan foydalanish u bilan muloqotni yengillashtiradi.

#### (Brayl yozuvi)

Ko'ra olmaydigan insonlar bilan muloqot qilish vositasi uchun brayl yozuvi va brayl plitkalari mavjud.



Brayl yozuvi



Brayl plitkalari

### **3) Eshitishda kamchiligi bo‘lgan odam bilan muloqot qilish**

#### **1. Eshitishda kamchiligi bo‘lgan odam bilan muloqot qilishning o‘ziga xos xususiyatlari**

Bunday inson tovushlarni yaxshi eshitmagani sababli, unda psixologik ko‘mak ko‘rsatilishi ham zarur bo‘lgan o‘zini yo‘qotib qo‘yish va yakkalanib qolish hissiyoti paydo bo‘lishiga moyilligi mavjud bo‘ladi.

#### **2. Eshitishda kamchiligi bo‘lgan odam bilan muloqot qilishda yodda saqlanishi lozim bo‘lgan jihatlar**


- Yuzingiz ifodasi va og‘zingiz qimirlashi ko‘rinishi uchun bir-biringizga yuzma-yuz qarab gapiring.
- Uning quloqlaridan biri kamroq shikastlangan bo‘lsa, o‘sha tomondagи quloqqa qarata gapiring.
- Sekin va aniq gapiring.
- Ortiqcha darajada baland gapirmang.
- U bilan iloji boricha sokin joyda gaplasting.

#### **3. Eshitish imkoniyati cheklangan insonlar bilan muloqot qilishda yordamchi usullar va moslamalarga misollar**

##### **(Nutq (lab) dan o‘qish)**

Nutq (lab) dan o‘qish deganda muloqot qilish uchun lab harakatlarini ko‘rish va talqin qilish tushuniladi.

##### **● Labdan o‘qish orqali muloqot**



### (Yozuv vositalari yordamida muloqot)

Inson bilan qog'oz hamda yozib-o'chiriladigan doska yordamida muloqot qiling. AKT va boshqalar ham bu kabi muloqotlarda ishlatiladi.


### ● Yozuv vositalari yordamida muloqot



### (Imo-ishora tili)

Imo-ishora tili deganda barmoq va qo'lning birgalikdagi imo-ishoralari hamda yuz va bo'yin harakatlari orqali ma'nolarni ifodalash tushuniladi.


### ● Imo-ishoralar yordamida muloqot



### (Qulq apparati)

Qulq apparati – bu mikrofon orqali tovushlari jamlab, ularni kuchaytirib, qulqlarga yetkazadigan moslamadir.

### ● Qulq apparatidan foydalangan holda muloqot qilish



## **4) Afaziysi bo'lgan (soqov) odam bilan muloqot qilish**

### **1. Soqov odam bilan muloqot qilishning o'ziga xos xususiyatlari**

Afaziya (soqovlik) – “boshqalarni tinglash va tushunish”, “hujjatlarni o‘qish va tushunish”, “gapisirish” va “harf yoki belgilarni yozish” kabi inson funksiyalari bosh miyaning nutqni boshqaradigan bo‘lagi shikastlanishi oqibatida pasayadigan holatdir.


### **2. Soqov odam bilan muloqot qilishda yodda saqlanishi lozim bo'lgan jihatlar**

- Insonga sekinlik bilan, aniq, qisqa va tushunish oson bo‘lgan so‘zlardan foydalanib gapiring.
- Rasm, fotosurat va qo‘l hamda tana imo-ishoralarini kabi nutqdan boshqa muloqot usullaridan foydalaning.
- Nutqdagi sezilmas xatolarga e’tibor qaratmang.

Yopiq savollar beringki, u osongina “ha” yoki “yo‘q” deya javob bera olsin.

### **3. Soqov insonlar bilan muloqot qilishda yordamchi usullar va moslamalarga misollar**

- Nutq o‘rniga qo‘l hamda tana imo-ishoralaridan foydalanish
- Rasm va ko‘rgazmalardan foydalanish



## 5) Aqliy zaiflikdan (demensiya) aziyat chekuvchi odam bilan muloqot qilish

### 1. Aqliy zaiflikdan aziyat chekuvchi odam bilan muloqot qilishning o'ziga xos xususiyatlari

Miyaning kognitiv faoliyati yomonlashishi tufayli bir xil suhbat bir necha marotaba takrorlanaveradigan va parvarishlovchi xodim va mijoz o'rtasidagi muloqot ma'nosiz ko'rinish oladigan holatlar ham bo'lib turadi.

### 2. Aqliy zaiflikdan aziyat chekuvchi muloqot qilishda yodda saqlanishi lozim bo'lgan jihatlar

- Sekin gapiring.
- Tushunish oson bo'lgan so'zlar va qisqa jumlalar yordamida muloqot qiling.
- Uning gaplari aslida noto'g'ri bo'lsa ham, uni inkor etmang. Shunchaki qabul qiling va unga hamdard bo'ling.

#### ● Aqliy zaiflikdan aziyat chekuvchi odam bilan muloqot qilishga misollar



Aqliy zaiflikdan aziyat chekuvchi insonning xavotirlarini qabul qiling.

# 3

# Jamoa a'zolari bilan muloqot

## 1 Yozuvlar olib borish orqali ma'lumot ulashish haqida asosiy tushunchaga ega bo'lish.

### 1) Ma'lumot ulashishning maqsadi

Parvarishlash nafaqat parvarishlovchi xodim tomonidan, balki jamoadagi tibbiyot va boshqa xizmatchilar bilan hamkorlikda amalga oshiriladi. Mijozga yanada sifatliroq hamshiralik xizmati ko'rsatish maqsadida guruh a'zolari hamshiralik parvarishi tarkibi va tibbiy ma'lumotlarni ulashadi.

#### ◎ Ma'lumot ulashish usullari


##### Yozuvlar olib borish orqali ma'lumot ulashish

Parvarish rejasi, voqealar yozuvlari, navbatchilik daftari va h.k.

##### Yig'ilish (suhbat) tashkil etish orqali ma'lumot ulashish

Mijozlar haqidagi ma'lumotlar keyingi navbatchilikka yetkaziladigan uchrashuvlar, shuningdek bemor parvarishi bilan bog'liq mavzular muhokama qilinadigan yig'ilishlar bo'ladi.

##### Yozuvlar olib borish orqali ma'lumot ulashish



##### Ma'lumotlarni keyingi navbatchilikka ulashish



## 2) Hamshiralik parvarishida yozuvlar yuritishning ahamiyati

Hamshiralik parvarishini sifatli amalga oshirish uchun parvarishlovchi xodim mijoz haqida bat afsil ma'lumotga ega bo'lishi lozim. Parvarishlovchi xodim mijoz holati, unga bo'lgan yondashuv va mijozning bunga javobini yozib boradi.

Yozuvlarni olib borish ikki nuqtayi nazardan ahmiyatga ega: Parvarishlash bo'yicha yanada yuqori sifatga ega xizmat ko'rsatish va jamoaviy parvarishni amalga oshirish.

## 3) Hamshiralik parvarishiga oid yozuvlarni olib borish asoslari

(1) Xotira sof va toza bo'lgan payt yozuvlarni olib boring.

(2) Sana va vaqt ni aniq yozing.

Qayd etilgan voqeя qachon sodir bo'lganini aniq bilish uchun sanani yozib qo'ying.

(3) Faktlarni yozib qo'ying.

Faktlar "subyektiv" va "obyektiv"

Faktlar	Tafsilotlar
Subyektiv faktlar	<ul style="list-style-type: none"> <li>Mijoz ko'rgan, boshidan o'tkazgan va shikoyat qilgan va boshqa narsalar.</li> <li>Mijoz e'tirozlari va h.k..</li> </ul>
Obyektiv faktlar	<ul style="list-style-type: none"> <li>Parvarishlash xodimi va h.k. kuzatgan narsalar.</li> <li>Qon bosimi ko'rsatkichi, tana harorati ko'rsatkichi, tekshirish natijasida to'plangan ma'lumotlar va h.k.</li> </ul>

### Yozuvga misol


Sana	Obyektiv fakt	Subyektiv fakt
2019-yil 20-iyul	Soat 8:00 da hojatga chiqish vaqtida janob XXga ko'maklashayotganimda dumg'aza sohasida diametri 1 sm ni tashkil qiladigan qizarishni ko'rdim. Undan so'radim, u esa "hech qanday og'riq sezmayapman" deb aytdi. Bu haqda hamshiraga xabar berdim va bu yotoq yaraning erta bosqichi ekani ma'lum bo'ldi.	Tafsilotlar

(4) Ma'lumotnishundaytarzdayozingki, unio'qiganodambirmartadayoqmazmuninitushuna oladigan bo'lsin.

Oltita narsani quyidagicha yozing:

- (1) Qachon ⇒ いつ
- (2) Qayerda ⇒ どこで
- (3) Kim ⇒ だれが
- (4) Nima ⇒ 何を
- (5) Nega ⇒ なぜ
- (6) Qanday ⇒ どのように

### ● Tushunish oson bo'lgan jumlaga misol



#### 4) Shaxsiy ma'lumotlarni himoyalash va maxfiylikni ta'minlash

Parvarishlovchi xodimlar ma'lumot boshqaruviga sinchkovlik bilan e'tibor berishlari lozim. Shaxsiy ma'lumotlarni himoyalash va maxfiylikni ta'minlash mutaxassislar kasbiy odobining bir qismi sifatida, ayniqsa, qat'iy talab qilinadi.

Shaxsiy ma'lumotlarni bo'lishishdan oldin ushbu ma'lumotlarni qayta ishlash uchun mijozning o'zidan rozilik olish zarur.

##### (Shaxsiy ma'lumot turlari)

Ism-familiya, manzil, telefon raqami, shaxsning fotosurati va h.k.

Shaxsiy ma'lumotlarni sir saqlashda quyidagilarga e'tibor berishingiz lozim

- Ish joyingizdan tashqarida mijozlar va ish joyingiz haqida gapirmang.
- Internet va ijtimoiy tarmoqlarda mijozlar va ish joyingiz haqida izohlar qoldirmang.



## 2 Xabar berish/muloqot qilish/maslahatlashish

### 1) Xabar berish/muloqot qilish

Parvarishlovchi xodimlar hamshiralik parvarishini jamoa bo‘lib amalga oshiradi. Shu maqsadda ular ma’lumot bo‘lishish uchun jamoaning qolgan a’zolariga mijozlar bilan muloqot paytida nimalarni sezgani, shuningdek o‘zlarining va boshqalarning vazifalari haqida hisobot va xabar beradilar.

Hisobot va ma’lumotlarni uzatish vaqtin ularning tarkibiga qarab farq qilishi mumkin. Agar ma’lumot tarkibida kechiktirmasdan ta’sir choralar ko‘rish lozim bo‘lgan hodisa, masalan avariya ro‘y bergan bo‘lsa, zudlik bilan bu haqda xabar bering.

#### Ma’lumotni taqdim etayotgan shaxs

- Bu haqda qisqa va lo‘nda tarzda xabar bering
- Faktlar va fikrlarni alohida taqdim eting.
- Hisobotni joy va vaqtini aniq ko‘rsatgan holda taqdim eting.



#### Ma’lumotni qabul qilayotgan shaxs

- Qaydlar qilib boring
- Qulqoq tuting va faktlarni fikrlardan farqlang
- Narigi tomon aytgan gapni takrorlang

### 2) Maslahatlashish

Agar sizda muammo paydo bo‘lgan bo‘lsa yoki biror narsani tushunmasangiz, maslahat olish uchun hamkasblaringizga yoki mutaxassislarga murojaat qiling. Shubhada bo‘lsangiz, o‘zingizcha qaror chiqarmang. Maslahat olish uchun qolganlarga yuzlaning.

## Kundalik parvarishni amalga oshirish uchun Ko'nikmalar

- 1** Sayr qilish, ko'tarish, ko'chirish bilan bog'liq holatlarda hamshiralik parvarishi
- 2** Ovqatlanish paytida hamshiralik parvarishi
- 3** Hojat paytida hamshiralik parvarishi
- 4** O'ziga qarashda hamshiralik parvarishi
- 5** Yuvinish, pokiza saqlanishda hamshiralik parvarishi
- 6** Uy ishlarini bajarishda hamshiralik parvarishi

# 1

# Sayr qilish, ko‘tarish, ko‘chirish bilan bog‘liq holatlarda hamshiralik parvarishi

## 1 Sayr qilish/ko‘tarish/ko‘chishning ahamiyati

### 1) Hamshiralik parvarishida sayr qilish/ko‘tarish/ko‘chishning ahamiyati

Insonning faoliyat doirasi ko‘chish orqali kengayadi. Keng doirali faoliyatdan iborat hayot insonlarning jismoniy holati va ruhiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va yaxshilashga ko‘maklashadi. Kundalik hayotda insonlar muayyan faoliyat bilan shug‘ullanuvchi joylarga borishadi, masalan, ovqatlanish uchun oshxonaga, hojatni chiqarish uchun hojatxonaga, yuvinish uchun hammomga. Shunday qilib, bir joydan ikkinchi joyga borish kundalik hayot faoliyati bilan bog‘liq.




- Kundalik hayot faoliyati (KHF) va vositaviy kundalik hayot faoliyati (VKHF) o'rta sidagi bog'liqlik

## VKHF (vositaviy kunlik hayot faoliyati)



## KHF (kunlik hayot faoliyati)



### Atamalar izohi

## Kundalik hayot faoliyati (KHF) va vositaviy kundalik hayot faoliyati (VKHF)


KHF bu inson mustaqil yashash uchun bajaradigan faoliyatlar ketma-ketliklaridir. KHF ga sayr qilish, ovqatlanish, kiyinish, hojatga chiqish va yuvinish kiradi. VKHF – bu insonning uyda yoki jamiyatda yashashi uchun zarur qobiliyatidir. VKHF ga moliyaviy holatni boshqarish, xardlarni amalga oshirish, kir yuvish, transport xizmatlaridan foydalanish va aloqa vositalaridan foydalanish kiradi.

## 2 Tana va ruhning sayr qilish/ko‘tarish/ ko‘chish bilan bog‘liq mexanizmi

### 1) Tananing sayr qilish/ko‘tarish/ko‘chish bilan bog‘liq qismlari

Sayr qilish/ko‘tarish/ko‘chishda turli mushaklar va bo‘g‘imlar ishtirok etadi.

#### ● Tananing sayr qilish/ko‘tarish/ko‘chish bilan bog‘liq asosiy qismlari




## 2) Gavda holatlari

Bu holatlар турган (тик турish), о‘трган (о‘тирish) ва ўотган (декубитус) holatlarga bo‘linadi.

### (1) Tik turish holati

- **Tik turish holati**



### (2) O‘tirish holatlari

- **Insonning yotoq chetida  
oyoqlarini osiltirgan holda  
o‘tirish holati**



- **Kursida o‘tirish holati (o‘tirish  
holati)**



- **Uzun o‘tirish holati**



- **yarim o‘tirish holati (Fauler  
holati)**



(3) Dekubitus holatlari


● Bel bilan yotish



● Yonboshlab yotish




● Qorin bilan yotish



### 3) Qulay holat


#### ● Qulay bo'lgan yotoq holati

Bu eng barqaror holat.




#### ● Qulay (o'ng) yonbosh holat

Ko'krak qafasi qarshisiga yostiq qo'ying. Boshqa yostiqni oyoqlar orasiga o'ng oyoq tagiga qo'ying.



#### ● Yarim o'tirish holati (Fauler holati)

Ikkala oyoqni ko'tarish uchun ko'tariluvchi yotoqni sozlang. Agar yotoq sozlanmaydigan bo'lsa, ikkala tizza tagiga yostiq joylang.




#### Atamalar izohi

#### *Senuki*

Mijoz tanasining yuqori qismini ko'targan paytda uning belini yotoqdan ko'taring. Bu muolaja senuki deb nomlanadi va u yotoq yaralari paydo bo'lishining oldini oladi.

#### 4) Harakatsizlik sindromi

Harakatsizlik sindromi – bu yotoqda uzoq vaqt mobaynida yotish va uzoq vaqt faol bo‘lmaslik hisobiga turli fiziologik va psixologik o‘zgarishlardir.




## (5) Yotoq yara

Yotoq yara – bu terining suyaklar bo'rtib chiqqan sohalarda qon aylanishining buzilishi hisobiga uzoq vaqt ezelishi oqibatida nekrozga uchrashidir (yara hosil bo'lishi). Yotoqdagi gavda holati o'zgartirilayotganida va choyshab burmalariga ishqalanish bunga sabab bo'lishi mumkin.

### ◎ Yotoq yaralarining oldini olish usullari

- (1) Imkon bo'lsa, mijozning yotoqdan turishini iltimos qiling.
- (2) Muntazam ravishda gavda holatini o'zgartiring.
- (3) Mijozni yetarli miqdorda ovqatlantiring.

### ● Yotoq yaralari hosil bo'lishiga moyilligi yuqori bo'lgan tana sohalari



## 6) Sayr qilish/ko‘tarish/ko‘chish uchun yordamchi moslamalar

Yordamchi moslamalarga nogironlik aravachasidan tashqari hassa, yurgichlar va liftlar (ko‘targich) kiradi.



**T-simon hassa:** T-simon hassa yengil va foydalanish uchun juda qulay.

**To‘rt oyoqli hassa:** Uning tayanch maydoni T-simon hassanikiga qaraganda kengroq bo‘lganligi sababli, tana og‘irligini tananing shikastlangan tomoni ko‘tarishi qiyin bo‘lgan hollarda ishlataladi.

**Yurituvchi:** Yurituvchi o‘zining tayanch maydoni hassanikiga nisbatan kattaroq bo‘lgani uchun ancha barqaror hisoblanadi.

Ko‘targich parvarish xodimlari uchun mijoz yuklamasini kamaytirishda samarali hisoblanadi.

(1) Shiftga o‘rnatiladigan ko‘targich	(2) Polga o‘rnatiladigan ko‘targich
A hoist system consisting of a pulley and a pink sling suspended from a horizontal track mounted on a ceiling. A control box is attached to the track.	A hoist system with a vertical metal frame, a pink sling, and a control unit at the bottom. It is mounted on a small cart with wheels.

### 3 Ko'chish/harakatlanish bilan bog'liq hamshiralik parvarishining amaliy qismi

#### 1) Jismoniy hamshiralik parvarishi asoslari

Bu barcha hamshiralik parvarishi faoliyati uchun umumiyyidir.

(1) Mijozning jismoniy holati qoniqarli ekaniga ishonch hosil qiling.



Hamshiralik parvarishini amalga oshirishdan avval mijozning jismoniy holatini tasdiqlaganingizga ishonch hosil qiling. Jismoniy holati yomon bo'lganida, uni majburlamang. Bu haqda tibbiyot xodimlariga xabar bering.

(2) Mijozga qilmoqchi bo'layotgan ishingizning maqsadi va tarkibini tushuntiring va bu uchun undan izn so'rang.



Hamshiralik parvarishini amalga oshirayotganingizda mijozning o'z hayotiga o'zi xo'jayin ekanligini hurmat qiling. Bundan tashqari, mijoz hamshiralik parvarishi amallarini oldindan bilsa, o'zini xavfsiz his qiladi va ko'mak olishiga ishonchi komil bo'ladi.

(3) Yotoq balandligini parvarishlash uchun qulay holga sozlab oling.



Yotoq balandligini parvarishlash xodimining beliga yuklamani kamaytirish uchun qulay holda sozlab oling.



Atamalar izohi

#### Mustaqil bo'llishni qo'llab-quvvatlash

Mijoz layoqatli bo'lmagandagina unga ko'mak bering. Bunday qilish uchun mijoz holatini sinchkovlik bilan tekshiring.

Bu matnda parvarishlovchi xodimlar faoliyati tushuntiriladi, biroq aslida esa, ular mijozlarni o'zlar qila oladigan ishlarni o'zlar amalga oshirishga xohish uyg'otishi lozim.

## 2) Yotoqda ag'darish bilan bog'liq hamshiralik parvarishi

Bu yerda misol tariqasida chap tomonlama gemiplegiyasi bor mijoz keltiriladi.


- (1) Mijozning jismoniy holati qoniqarli ekaniga ishonch hosil qiling.
- (2) Mijozga qilmoqchi bo'layotgan ishingizning maqsadi va tarkibini tushuntiring va bu uchun undan ruxsat so'rang.
- (3) Yotoq balandligini parvarishlash uchun qulay holda sozlab oling.
- (4) Mijozning tizzalarini ko'taring.
- (5) Undan jarohatlangan qismini yuqoriga qilgan holda yonboshlab olishini so'rang.



Tayanch asosini kamaytirish  
maqsadida mijozning qo'li va oyoqlarini  
tanasining markaziga yaqinlashtiring.



- (6) Mijozning belini yotoqning narigi tomoniga qarab suring.



Bu yonbosh holatni  
yanada barqaror qiladi.



- (7) Mijozning oyoqlarini qulay holatga keltiring.



Kengroq tayanch asosi  
tana holatining barqaror  
qilishga yordam beradi.




### 3) Turish (o'ng yonbosh holatdan yotoq chetiga o'tirish va oyoqlarini yerga osiltirish holatiga o'tish) bilan bog'liq hamshiralik parvarishi

- (1) Mijozning jismoniy holati qoniqarli ekaniga ishonch hosil qiling.
- (2) Mijozga qilmoqchi bo'layotgan ishingizning maqsadi va tarkibini tushuntiring va bu uchun undan ruxsat so'rang.
- (3) Yotoq balandligini mijozning oyoqlari yotoq chetida o'tirganida xonadagi polga tegib turadigan qilib sozlang.
- (4) Mijozgajaro hatlangan qismini yuqoriga qilgan holda yonboshlab olishidako'maklashing.
- (5) Mijozning oyoqlarini yotoq chekkasiga suring.



- (6) Mijozning oyoqlarini yotoqdan polga tushiring va o'ng tirsagi bilan tanasini yotoqdan itarishini iltimos qiling. Unga tanasining yuqori qismini ko'tarishga ko'maklashing.



- (7) Mijozning o‘zini his qilishi va jismoniy holati qoniqarli ekaniga ishonch hosil qiling.
- (8) Uning ikkala oyog‘i ham polda ekaniga ishonch hosil qiling.



Bu o‘tirish holatini barqarorlashtiradi.

#### **4) Turish bilan bog‘liq hamshiralik parvarishi (yotoq chetida oyoqlarini pastga osiltirgan holda o‘tirishidan tortib tik turishigacha)**

- (1) Mijozning jismoniy holati qoniqarli ekaniga ishonch hosil qiling.
- (2) Mijozga qilmoqchi bo‘layotgan ishingizning maqsadi va tarkibini tushuntiring va bu uchun undan ruxsat so‘rang.
- (3) Undan yotoqning chetrog‘iga surilgan holda o‘tirishini iltimos qiling.



- (4) Parvarishlovchi xodim mijozning shikastlangan tomonida turgan holda sog‘lom tomonidagi to‘piqni yotoqqa yaqinlashtiradi.



Bu mijoz turayotganda tana og‘irligini sog‘lom tomonidagi oyoqqa o‘tkazish uchun qilinadi.

- (5) Parvarishlovchi xodim shikastlangan tomonidagi tizzasi bukilmasligini nazorat qiladi. Mijozdan tanasini yuqori qismini yetarli darajada bukkan holda tik turishini iltimos qiling.



Bu mijozning  
shikastlangan tomoni  
bilan yiqilishining  
oldini oladi.

- (6) Mijozning o'zini his qilishi va jismoniy holati qoniqarli ekaniga ishonch hosil qiling.

#### Atamalar izohi

### Tizza bukilishi



Tizza bukilishi deganda yiqilishga olib kelishi mumkin bo'lgan turayotgan yoki yurayotgan holatda tizzalarining bexosdan bukilib ketishi tushuniladi.

## 5) Gemiplegiyadan aziyat chekayotgan mijozni parvarish qilish

### (Hassaga tayanib yurish)

Hassaga tayanib yurishning ikki xil usuli mavjud: ikki nuqtali yurish va uch nuqtali yurish.

#### ● Ikki nuqtali yurish va uch nuqtali yurish o'rtaqidagi farq.

Yurish	Ikki nuqtali yurish	Uch nuqtali yurish
Oldinga qadam tashlash tartibi	<p>(1) Hassa va shikastlangan tomon →  (2) Sog'lom tomon</p> 	<p>(1) Hassa → (2) Shikastlangan tomon → (3) Sog'lom tomon</p> 
Barqarorlik	Past	Baland



Inson shikastlangan tomonidagi oyog'i bilan birinchi qadamni tashlashi zarurligining sababi kuchliroq tayanch bilan ta'minlaydigan sog'lom tomoni tanaga mustahkamroq tayanch bo'la oladi.

### Hassaga tayanib yurish bilan bog'liq hamshiralik parvarishi

Parvarishlovchi xodim mijozning shikastlangan tomonida uning bel qismiga qaragan holda turadi va tanasining yuqori qismi va/yoki belining pastki qismini ko'taradi.



### (Zinadan ko'tarilish)

Xavfsizlikni ta'minlash maqsadida parvarishlovchi xodim mijozdan bir qadam pastda (ortda) turadi. Mijoz quyidagi tartibda zinadan ko'tariladi: (1) Hassa → (2) Sog'lom tomondagi oyog'i → (3) Shikastlangan tomondagi oyog'i.



Zinapoyada tutqich bo'lib, mijoz uni ushlab olsa, bu uni barqaror turishida yordam beradi.

### (Zina bo'ylab tushish)

Xavfsizlikni ta'minlash maqsadida parvarishlovchi xodim mijozdan bir qadam yuqorida (oldinda) turadi. Mijoz quyidagi tartibda zinadan tushadi: (1) Hassa → (2) Shikastlangan tomondagi oyog'i → (3) Sog'lom tomondagi oyog'i.



Zinapoyada tutqich bo'lib, mijoz uni ushlab olsa, bu uni barqaror turishida yordam beradi.

## 6) Ko‘rishda kamchiligi bo‘lgan mijoz bilan yurishda qilishda hamshiralik parvarishi


Yurish tezligi mijozning yurish tempiga moslashgan bo‘lishi lozim. Vaziyat zinalar, past-balandliklar, burchaklar hisobiga o‘zgarganida bu haqda mijozga oldindan xabar bering va u bilan gaplasting.

● Mijozni yo‘naltirishda qabul qilinadigan asosiy holat



## 7) Nogironlik aravachasidan foydalanishda hamshiralik parvarishi

● Nogironlik aravasining tuzilishi va qismlari nomlanishi



## (Nogironlik aravachasidan foydalanish bilan bog'liq yodda saqlanishi lozim bo'lgan narsalar)

- Nogironlik aravachasini ishlatishdan avval, g'ildiraklardagi havo bosimi va tormoz holatini tekshiring. G'ildiraklarda havo bosimi past bo'lsa, tormozlar to'g'ri ishlamasligi xavfi mavjud bo'ladi.
- Nogironlik aravachasi to'xtab turganida tormozni faollashtirishni unutmang. Hatto hech kim o'tirmagan bo'lsa ham tormozni doim faollashtirishni unutmang, chunki u harakatga kelsa, ayanchli oqibatlar yuz berishi mumkin.

## 8) Nogironlik aravachasidan yotoqqa o'tkazish

- (1) Mijozning jismoniy holati qoniqarli ekaniga ishonch hosil qiling.
- (2) Mijozga qilmoqchi bo'layotgan ishingizning maqsadi va tarkibini tushuntiring va bu uchun undan ruxsat so'rang.
- (3) Yotoq balandligini mijozning oyoqlari yotoq chetida o'tirganida xonadagi polga tegib turadigan qilib sozlang.
- (4) Nogironlik aravachasini mijozning sog'lom tomoniga qo'ying va tormozini faollashtiring.
- (5) Mijozdan tutqichni sog'lom tomonidagi qo'li bilan ushlab turishini iltimos qiling. Parvarishlovchi xodim shikastlangan tomonidagi tizzasi bukilmasligiga ishonch hosil qilishi lozim.



Shikastlangan tomonidagi tizzasini ko'tarish.



Shol odamni ko'chirishdagi asosiy qoida avval sog'lom tomonini ko'chirishdir.

(6) Mijoz boshini egib, sekin-asta o‘rnidan turgan holda nogironlik aravachasi tomonga burilishini iltimos qiling.




(7) Mijozga nogironlik aravachasida orqaga suyanishni so‘rang. Oyoqlarini oyoq uchun taglikka qo‘yishini iltimos qiling.



(8) Mijozning o‘zini yaxshi qilayotgani va jismoniy holati qoniqarli ekaniga ishonch hosil qiling.


## 9) Nogironlik aravachasida harakatlanishda hamshiralik parvarishi

- (1) Mijozning jismoniy holati qoniqarli ekaniga ishonch hosil qiling.
- (2) Mijozga qilmoqchi bo'layotgan ishingizning maqsadi va tarkibini tushuntiring va bu uchun undan ruxsat so'rang.
- (3) Mijoz oyoqlarini oyoq uchun taglikka qo'ying.
- (4) Mijozning qo'llari aravachaning g'ildiragiga kirib ketmasligiga ishonch hosil qiling.
- (5) Tormozni bo'shating, mijozga aravacha yurishini ayting va aravachani haydashni boshlang.




## (Zinadan ko‘tarilish)

Zina oldida to‘xtang va mijozga zinadan ko‘tarilishini ayting.



Parvarishlovchi xodim  
o‘zakni oyog‘i bilan  
ohista bosishi lozim.





Zinaga avval kichik g‘ildiraklarni, so‘ngra katta  
g‘ildiraklarni chiqaring.

### (Zinadan tushish)

Zina oldida to'xtang va mijozga zinadan tushishini ayting.

Aravachani ortga buring va katta g'ildiraklarini pastga tushiring.



Katta g'ildiraklarni yetarlicha torting va kichik g'ildiraklarni sekin pastga tushiring.

## (Qiyalikdan tushish)

Qiyalikdan tushishda aravachani teskari haydashingizni ayting.

Ortingizdagи yo'nalish  
xavfsiz ekaniga ishonch  
hosil qiling.

Parvarishlovchi xodim  
bir oyog'ini ikkinchi  
oyog'i ortiga qo'yishi  
lozim.



Aravachani teskari qilib, haydashda davom eting.



Qiyalikdan pastga tushishda aravachani teskari holda haydash mijozning aravachadan sirpanib tushib ketishi oldini oladi.

## QISM 4

### Kundalik parvarishni amalga oshirish uchun Ko'nikmalar

Sayr qiliш, ko'tarish, ko'chiшish bilan  
BOB 1 bog'iш holattarda hamshiralik parvarishi

# 2

# Ovqatlanish paytida hamshiralik parvarishi

## 1

## Ovqatlanishning ahamiyati

Ovqatlanish deganda ovqatni og‘iz bilan yeyishimiz tushuniladi. Faol bo‘lish va tiriklikni ta’minlash uchun tanamizni oziqlantiramiz.

Ovqatni og‘iz orqali qabul qilish va og‘izda uning ta’mini sezish bosh miyani faollashtiradi va hayot ritmi o‘rnatalishiga yordam beradi.

Ovqatlanish – hayot lazzatlaridan biridir. Bu insonlar o‘rtasida munosabat o‘rnatish uchun muloqot qilish imkoniyatdir.



## 2

## Ruh va tananing ovqatlanish bilan bog‘liq mexanizmi

Bosh miyangiz och qolganingizni his qilsa, biror narsa yegingiz kelayotganini sezasiz.

- Borib dasturxon oldiga o‘tirasiz, qomatingizni moslaysiz va ovqatni ko‘zingiz bilan tekshirasiz. Ovqatlanish cho‘plari yoki qoshiq yordamida ovqatni og‘zingizga solasiz. Ovqatni chaynaysiz va yutasiz.
- Ovqatlanish paytida nazar solish va hidlash orqali ovqatni tasdiqlaysiz va ta’mni va chaynaladigan massani ta’m bilish va teginish sezgisi orqali his etasiz.
- Organizmning ko‘plab funksiyalari ovqatlanishga daxldor.

## Ovqatlanish va yutish oqimi

Ishtaha ochilish bosqichi		<ul style="list-style-type: none"> <li>Ovqat rangi, shakli va hidi aniqlanadi.</li> <li>So'lak ajraladi.</li> </ul>
Tayyorgarlik bosqichi		<ul style="list-style-type: none"> <li>Og'izga solingan ovqat chaynaladi va so'lak bilan aralashib, ovqat yutumi (bolyus) hosil bo'ladi.</li> </ul>
Og'iz bo'shlig'i bosqichi		<ul style="list-style-type: none"> <li>Bolyus og'iz bo'shlig'idan kekirdakka o'tadi.</li> <li>Til asosan ovqatni uzatish uchun xizmat qiladi.</li> </ul>
Hiqildoq bosqichi		<ul style="list-style-type: none"> <li>Yutish refleksi sodir bo'ladi va bolyus hiqildoqdan o'tadi.</li> <li>Bo'g'iz yopiladi va bolyus traxeyaga tushishining oldini oladi.</li> </ul>
Qizilo'ngach bosqichi		<ul style="list-style-type: none"> <li>Bolyus qizilo'ngach orqali oshqozonga tushadi.</li> </ul>



Bu oqim yo'llining biror yerida buzilish bo'lsa, ovqat qabul qilish qiyinlashadi. Odatda bu ovqatlanish va yutishning buzilishi deb nomlanadi.

### 3 Ovqatlanishda ko'maklashishning dolzarbli

#### ◎ Ovqatlanishda ko'maklashishda yodda saqlash lozim bo'lgan narsalar

- Mijoz yeyayotgan ovqat unga yoqishi yoki yoqmasligini tasdiqlang.
- Ehtiyyot bo'ling. Kasallikka qarshi davolanish paytida yoki allergiya tufayli mijoz iste'mol qilishi ta'qiqlangan narsalar bo'lishi mumkin.
- Taomni yetarli darajada yumshoq holda tayyorlang yoki yeyish uchun mayda bo'laklarga bo'lingki, bu yeyishni oson qilsin va mijozning chaynash va yutish imkoniyatlariga mos bo'lsin.
- Issiq holda yeyiladigan ovqatni issiq holda va sovuq holda yeyiladigan taomni sovuq holda dasturxonga torting.

#### (Mijozning chaynash va yutish imkoniyatlariga mos keluvchi ovqat shakllari)

Qiyma ovqat: Yaxshilab maydalangan va yeyishga qulay ovqat

Ezilgan (pyure) ovqat: Pasta holatidagi ovqat


Yumshoq pishirilgan ovqat: Pishirilgan, lekin o'zining asl shaklini saqlagan taom

Quyuq ovqat Yutish funksiyasi pasaygan odamlarda suvdan tiqilib qolmasliklari uchun quyuq ovqat.

#### 1) Ovqatlanish paytida tana holati

#### ◎ Ovqatlanish paytida tananing to'g'ri holati

Oyoqlaringizni polga qo'ygan holda kursiga orqa bilan suyanib o'tiring. Biroz oldinga egiling va jag'ingizni ichkariga torting.



Jag' yuqoriga ko'tarilgan bo'lsa,  
tiqilib qolish xavfi tug'iladi.



### ● Yotoqda ovqat qabul qilganda tananing to‘g‘ri holati

Mijoz uchun o‘tirib ovqatlanish qiyin bo‘lsa, u ovqatni yotoqda qabul qilishi mumkin.




- Mijoz tanasi ko‘tarilishi va yarim o‘tirgan holatga kelishi uchun yotoq asosini sozlang.
- Mijoz ko‘tarilganidan keyin uning belini birdan ko‘targan holda, senukini amalgaga oshiring.
- Mijoz uchun yarim o‘tirgan holatga o‘tirish qiyin bo‘lsa, uni yonboshlating.




Mijoza gemiplegiya bo‘lsa, sog‘lom tomonini pastga qarata yotqizing.


## ● Ovqatlanish moslamalari




Ushlash uchun qulay bo'lgan  
sanchqi va qoshiq




Prujinali ovqat cho'plari




Ushlashga qulay bo'lgan idish-  
tovoqlar




Egiluvchan sanchqi va qoshiq




Kamar dastali qoshiq



Tutqichli bokal



Ushlashga qulay ovqat idishi



Sirpanmaydigan patnis

## 2) Ovqatlanishda ko'maklashishning dolzarbliги

- (1) Mijozning jismoniy holati qoniqarli ekaniga ishonch hosil qiling.
- (2) Mijozga qilmoqchi bo'layotgan ishingizning maqsadi va tarkibini tushuntiring va bu uchun undan ruxsat so'rang.
- (3) Mijoz qo'llarini tozalang.



- (4) Mijozni dasturxon oldiga olib boring va kursiga o'tqizing.



Kasallikka qarshi davolanish paytida yoki allergiya tufayli mijoz iste'mol qilishi taqiqlangan narsalar bor-yo'qligini parvarishlovchi xodim oldindan tasdiqlaydi.

- (5) Ovqatni mijozga ko'rinaradigan qilib uning oldiga qo'ying.
- (6) Parvarishlovchi xodim mijozning ustun qo'li tomonda yoki sog'lom tomonining qarshisiga diagonal tarzda o'tirishi lozim.

### ● Parvarishlovchi xodim holati



(7) Ovqat menyusini tushuntiring.

(8) Mijozga avval choy yoki sho'rva kabi suyuqlik bering.




Og'iz ichini  
namlang.

(9) Mijozning yeish sur'atiga muvofiq ovqat qabul qilishiga ko'maklashing.

- Parvarishlovchi xodim mijozga ko'maklashish paytida u bilan bir xil nigoh darajasida bo'lishi lozim.
- Mijozdan so'ragan yoki uni kuzatgan holda ovqatning og'izga solinishi tempini nazorat qiling.
- Mijoz sholdan aziyat chekayotgan bo'lsa, ovqatni sog'lom tomonidagi og'iz burchagiga soling.
- Mijoz ovqat chaynayotgan mahal tiqilib qolmasligi uchun u bilan gapplashmang.
- Jag'ini ichkariga tortgan holda chaynayotganiga ishonch hosil qiling.
- Qoshiq yordamida ko'maklashayotgan bo'lsangiz, qoshiqni gorizontal ravishda og'izdan chiqaring.



Mijozga ovqatlanishda yordam berishni tik turib qilsangiz, uning jag'i ko'tarilgan holatda bo'ladi, bu tiqilish xavfini kuchaytiradi.



Buning sababi, qoshiqni tik holda tepaga tortgan mahalingiz mijozning bo'yni ham ko'tariladi.


- (10) Mijoz ovqatlanishni yakunlagani haqida so'rang.
- (11) Og'zida ovqat qolmaganiga ishonch hosil qiling.
- (12) Mijoz og'iz bo'shlig'ini parvarish qilishiga ishonch hosil qiling (Tomog'ini chayishi/tishini tozalashi/tish protezlarini tozalashi).
- (13) Aspiratsion zotiljam oldini olish maqsadida mijozni ovqatlanib bo'lganidan so'ng 30 daqiqa davomida o'tirgan holda ushlab turing.

### 3) Ovqatlanishda ko'maklashishda yodda saqlash lozim bo'lgan narsalar

- Mijozda ovqat qabul qilish tempi, tanani tutish holati, yejish harakatlari, shuningdek, chaynash va yutish bilan bog'liq muammolar yo'qligini kuzating.
- Mijoz og'ziga ovqatni u istaganday olib boring.
- Ko'rish bilan bog'liq kamchiligi bo'lgan mijozlarda soat holati usulidan foydalaning (Bu usul kunning ma'lum soatida soat strelkasi yo'naliishida biror buyumning turgan holatini tasvirlaydi.)

Bundan tashqari, ovqat issiq yoki sovuq hamda qanday ziravorlanganini tushuntiring.

#### Soat strelkasi holatiga misollar



Ovqatlanish tayoqchalari  
soat 6 holatida  
joylashgan.

# 3

# Hojat paytida hamshiralik parvarishi

## 1 Chiqindilarni chiqarishning (ekskretsiya) ahamiyati

Ekskretsiya chiqindi mahsulotlarni tanadan chiqarishga xizmat qiladi. Chiqindi mahsulotlarga peshob, najas, ter, karbonat angidrid va boshqalar kiradi.

Ekskretsiya – bu inson salomatligini ta'minlashda muhim bo'lgan mexanizmdir. Bundan tashqari, ajralgan peshob va najas shaxsning salomatlik holatini ko'rsatib turadi. Chiqindi mahsulotlarni chiqarib tashlashda parvarishlash yordamini ko'rsatish muhimligidan kelib chiqqan holda hamshiralik parvarishini amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.



Hojatga chiqish insonlarni xijolat bo'lishga majbur qiladi. Hojatga chiqish bilan bog'liq yordamni amalga oshirayotganingizda mijozni tushungan holda unga ko'maklashishingiz muhim ahamiyatga egadir.




## 2 Chiqindilarni chiqarish (ekskretsiya) mexanizmi

### 1) Peshob ajralish mexanizmi

Peshob buyrakda hosil bo'ladi, so'ng qovuqda saqlanadi va nihoyat tashqi peshob yo'llari orqali chiqarib tashlanadi va bu jarayon urinatsiya deb ataladi.

Qovuqda peshob hajmi 200 dan 300 ml bo'lgan payt bemorda urinatsiya ehtiyoji deb atalmish hojatga chiqish hissi paydo bo'ladi.

#### ● Peshob shakllanishida ishtirok etuvchi tana qismlari




## 2) Najaş chiqarish (defekatsiya) mexanizmi

Og'iz orqali iste'mol qilinadigan ovqat va suyuqlik og'iz bo'shlig'idan oshqozonga tushadi va u yerda hazm bo'lishni boshlaydi. Ovqat va suyuqlik so'ngra ingichka ichakka o'tadi va u yerda kerakli oziq moddalar hamda suv so'rildi. So'rilişdan so'ng qolib ketgan mahsulotlar najaşa aylanadi va tanadan chiqariladi. Bu defekatsiya deb nomlanadi. Najaş odam ichagida to'planganida unda hojatga ehtiyoji paydo bo'ladi va bu defekatsiya ehtiyoji deb ataladi.

Vaqt o'tgani sari ehtiyoj yo'qoladi.

### ● Najaş shakllanishida ishtirok etuvchi tana qismlari



### ● Defekatsiya paytida tana holati

Tovoningiz ko'tarilgan va oldinga egilgan holatga o'ting. Bu holat najas o'tishini osonlashtiradi, sababi to'g'ri ichakdan chiqaruv teshigigacha bo'lган yo'l to'g'ridir.



## 3 Peshob va najasning tashqi ko'rinishi hamda miqdori

### 1) Urinatsiya paytida tana holati

Urinatsiya hajmi va peshobga qatnashlar soniga muhit va kasalliklar ta'sir ko'rsatadi.

### ● Normal va normal bo'Imagan urinatsiya

Urinatsiya	Normal urinatsiya	Normal bo'Imagan urinatsiya
Hajm	Kuniga 1000-1500 ml	Kuniga 2000-3000 ml yoki undan ortiq (poliuriya) Kuniga 300-500 ml yoki undan kam (oligouriya)
Qatnov soni	Kuniga 4-6-marta	10-marta va undan ortiq (pollakiuriya)
Hidli	Hidsiz	Kuchli ammoniy hidli
Rangi	Och sariqdan shaffofgacha	Xira, to'q jigarrang, qizil va h.k.

## 2) Najaş chiqarish (defekatsiya) paytida tana holati

Defekatsiyaga iste'mol qilingan ovqat, kasallik va h.k. ta'sir ko'rsatadi. Shu tariqa uning shakli, rangi va soni vaziyatga qarab o'zgarib turadi.

Parvarishni amalga oshirayotganingizda mijozning me'yordagi najaş chiqarish holatini bilishingiz lozim.

### ● Normal va normal bo'lmagan defekatsiya

Defekatsiya	Normal defekatsiya	Normal bo'lmagan defekatsiya
Qatnov soni	Kuniga 1-2-marta	Odatdagidan kam (qabziyat)
Rangi	(To'q) jigarrang	Qizil, qora, oq va h.k.



## 4 Hojat paytidagi hamshiralik parvarishi uchun kerak bo'ladigan vositalar

Hojat paytida ishlatiladigan turli vositalar mavjud. Mijoz holatiga mos keluvchi vositadan foydalaning.

### ● Hojat paytida ishlatiladigan turli vositalar

Vosita, uskuna	Shakl	Vosita foydalanuvchisi
Ko'chma hojatxona		Ko'chma hojatxona urinatsiya/defekatsiya uchun ehtiyoj sezgan mahalda yoki tungi payt hojatxonaga bora olmaydiganlar uchundir.
Ko'chma peshob xaltasi/ to'plagichi		Bu vositalar hojatga ehtiyoj sezadigan, lekin to'shakdan tura olmaydigan jismoniy holati qoniqarsiz va/yoki o'tirishda qiyinchiliklarga duch keladiganlar uchundir.
Taglik/ Yo'rgak		Bu urinatsiya/defekatsiya ehtiyojini sezmaydigan (peshob/najasni tutib tura olmaydiganlar) va ko'chma hojatxonadan va h.k.lardan foydalanishda qiyinchiliklarga duch keladigan uchundir.

## **5 Peshob ajratish tizimi faoliyatining pasayishi va buzilishi oqibatlari (peshob tutolmaslik/qabziyat/ich ketishi)**

### **1) Stressli peshob tutolmaslik**

Peshob tutolmaslik – bu beixtiyor siydk chiqarishdir.

#### **● Peshob tutolmaslik turlari**

	<b>Holat</b>
<b>Stressli peshob tutolmaslik</b>	Yo'tal, aksirish va h.k.dagi qorin ichki bosimi ortishi natijasida peshob chiqib ketishi.
<b>Urgent peshob tutolmaslik</b>	Bemorda peshob chiqarish hissi va xohishi paydo bo'ladi, lekin u peshobni ushlab turolmaydi va hojatxonaga yetib bormasdan peshob chiqib ketadi.
<b>To'lib ketish hisobiga peshob tutolmaslik</b>	Peshob yo'llari adenoma giperplaziysi va h.k. tufayli berkilgani sababli oz miqdorda peshob ajraladi.
<b>Reflektor peshob tutolmaslik</b>	Orqa miya zararlanishi va h.k. tufayli peshob beixtiyor ajraladi.
<b>Funksional peshob tutolmaslik</b>	Urinatsiya vaqtida bemor peshob chiqarish bilan bog'liq barcha harakatlarni amalga oshira olmasligi hisobiga bemorda peshob ajraladi. Bemor ehtiyojini hojatxonada chiqara olmasligi hisobiga peshob ajraladi, chunki u demensiya tufayli hojatxona joylashgan joyni bilmaydi.

### **2) Qabziyat**

Qabziyat deganda ichak harakatlari soni va/yoki najas hajmi davomiy tarzda me'yordan kam bo'lish holatidir.

#### **● Qabziyat turlari**

	<b>Holat</b>
<b>Funksional qabziyat</b>	Organizmdagi funksional buzilishlar tufayli.
<b>Organik qabziyat</b>	O'simta va/yoki yallig'lanish tufayli najas yo'llari to'silishi hisobiga yuzaga keladigan qabziyat.

**Yodda tutish kerak bo'lgan hamshiralik parvarishi**

- Mijoz muntazam ravishda hojatga qatnashini odatlantiring.
  - Mijozga muntazam ravishda yetarli miqdorda suyuqlik ichiring.
  - Mijoz parheziga kerakli miqdorda kletchatkaga boy mahsulotlardan qo'shing.
  - Mijozning kundalik hayotiga mashqlarni qo'shing.
- Mijozning qabziyati yo'qolmasa, tibbiyot xodimlariga xabar bering.

### 3) Ich ketishi (diareya)

Diareya deganda suyuq yoki suvsimon najas tushuniladi.

**Yodda tutish kerak bo'lgan hamshiralik parvarishi**

- Suyuqlik tanadan chiqib ketishi tufayli suvsizlanishning oldini oling.
- Agar mijoz og'iz orqali suyuqlik qabul qila olsa, iliq suv yoki normal haroratdagi sport ichimliklaridan iste'mol qilishini so'rang.
- Suyuq najas chiqaruv teshigi atrofini shikastlashi sababli, sohani ozoda saqlash maqsadida ifloslanishni yuvib tashlang yoki nam salfetka yordamida arting.

Yuqumli kasallik tufayli o'tkir diareya paydo bo'lishi mumkin. Tibbiyot xodimlariga xabar bering.




Ruhiy stress peshob ajralishiga ta'sir qiladi. Diqqat bilan mijozning holatini baholang va shikoyatlarini tinglang. Ajralgan najas va peshob holatini diqqat bilan o'rganing.

Agar jismoniy holatda muammo sezsangiz, darrov tibbiyot xodimlariga xabar bering. Bu mijoz salomatligini saqlashda yordam beradi.

## 6 Hojat chiqarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat jarayoni

Odatiy hojat chiqarish paytida bir qancha qadamlar amalga oshiriladi. Hojat chiqarishda nervlar vazifalari majmuasi va tana harakatlari ishtirok etadi.

### ● Hojat chiqarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat jarayoni



Hojat paytida yordamga muhtojlar og'ir ruhiy xastaliklardan aziyat chekadi. Hamshiralik parvarishini mijozning qadr-qimmatini hurmat qilgan holda amalga oshirish lozim.

## 7 Hojat paytidagi hamshiralik parvarishining dolzarbligi

### ◎ Hojat paytidagi hamshiralik parvarishi paytida yodda saqlanishi lozim bo'lgan jihatlar

- Mijozning hojatga chiqish tartibiga rioya qiling.
- Mijoz hijolat bo'lishi mumkinligini inobatga oling.
- Hidga ehtibor bering.
- Hojat chiqarishda qo'l keladigan usul va vositalardan foydalaning.
- Yuqumli kasalliklarning oldini olish maqsadida parvarishlovchi xodim bir martalik qo'lqop va fartukdan foydalanishi lozim.


### ● Hojat chiqarish uchun muhitga misol

#### L-simon tutqich

O'rnidan turayotganda ushlab turish uchun.

#### Sozlanuvchi tutqich

Tutqich mijoz holatidan kelib chiqqan holda ko'tarilishi va tushirilishi mumkin.



#### Chaqiruv tugmasi

Mijoz qiyinchilik yuzaga kelganida yoki hojatini chiqarib bo'lganidan keyin parvarishlovchi xodimni chaqirishi mumkin.

#### Sirpanuvchi eshik

Sirpanuvchi eshikni hatto aravachadagi mijoz ham osonlik bilan ocha oladi.

## **1) Hojat paytidagi hamshiralik parvarishining dolzarbligi: Hojatxonada hamshiralik parvarishi**

Bu yerda misol tariqasida chap tomonlama gemiplegiyasi bor mijoz keltiriladi.

- (1) Mijozni hojatxonagacha olib boring.



- (2) Mijoz tutqichni sog'lom tomonidagi qo'li bilan ushlasin.



Parvarishlovchi xodim tana barqarorligini ta'minlash maqsadida mijozning shikastlangan tomonida turadi.

- (3) Parvarishlovchi xodim mijozning shikastlangan tomonida turgan holda uning ishtonini va ich kiyimini tushiradi.



(4) Mijoz tutqichni ushlagan holda hojat kursisiga o'tiradi.



Mijoz barqaror  
holatda o'tirganiga  
ishonch hosil qiling.



(5) Parvarishlovchi xodim hojatxonadan chiqadi va eshikni yopadi.

(6) Mijoz hojatini chiqarib bo'lgani haqida xabar bergenidan so'ng, parvarishlovchi xodim hojatxonaga kiradi.

(7) Parvarishlovchi xodim mijozning ishtoni va ich kiyimini oxirigacha ko'taradi.



Mijoz o'tirgan holatida uning ishtoni  
va ich kiyimi o'tirgan holatida yarim  
ko'tarilgan bo'lsa, bu turayotgan  
paytdagi yuklamani kamaytiradi.

(8) Mijoz tutqichni ushlagan holda o‘rnidan turadi.



Mijoz o‘rnidan turayotganida uning sog‘lom tomonidagi oyog‘i orqaga tortilganiga ishonch hosil qiling.



(9) Agar mijoz oyog‘ida barqaror holda tura olsa, ishtoni va ich kiyimini o‘zi ko‘tarib olishiga qo‘yib bering.



(10) Ishtoni va ich kiyimi to‘liq ko‘tarilganiga ishonch hosil qiling.

## 2) Kiritiladigan peshob/najas yig'uvchi idishdan foydalanishda hamshiralik parvarishi

- (1) Kerakli vosita va anjomlarni hozirlang.
- (2) Hijolat chekilmaslik uchun pardalarni yopib qo'ying.
- (3) Parvarishlovchi xodimga qulay bo'lishi uchun yotoqning balanligini moslab oling. Yotoqqa namlik o'tkazmaydigan taglik qo'ying.
- (4) Mijozning tizzalarini ko'taring, belining pastki qismini ko'taring hamda ishtoni va ich kiyimini tushiring.
- (5) Mijoz belining pastki qismini ko'taring va chiqaruv teshigini yig'uvchi idishning markaziga to'g'rilagan holda joylashtiring. Yig'uvchi idish barqaror holda o'rashganiga ishonch hosil qiling.




Mijoz hijolat bo'lmasligi uchun qorin qismiga sochiq tashlab qo'ying.



Yotoqning bosh tomondagi qismi ko'tarib qo'yilsa, qorinning ichki bosimini oshirishda yordam beradi.


- (6) Mijoz belini ko'taring, uni tozalang va yig'uvchi idishni olib tashlang.



- (7) Terisini ko‘zdan kechiring.
- (8) Mijozni yonboshlating va namlik o‘tkazmaydigan taglikni olib tashlang.
- (9) Ich kiyim va ishtonni ko‘taring va kiyimlarni tartibga keltiring.
- (10) Yotoqning balandligini dastlabki holatga qaytaring.
- (11) Mijozning jismoniy holati qoniqarli ekaniga ishonch hosil qiling.
- (12) Moslamalarni olib tashlang, tozalang va olib qo‘ying hamda chiqindilarni tashlab yuboring.

### ● Peshob shishasidan foydalangan holda hojat chiqarish

Erkak	Ayol
Mijozni yonboshlating, orqasiga yostiq h.k. qo‘ying hamda peshob shishasini o‘z joyiga qo‘ying.	Peshob atrofga sachramasligi uchun papiros qog‘izi yordamida peshobni peshob shishasiga yo‘naltiring.

### 3) Yo'rgaklarni almashtirish bilan bog'liq hamshiralik parvarishi

- (1) Mijozning jismoniy holati qoniqarli ekaniga ishonch hosil qiling.
- (2) Mijozga qilmoqchi bo'layotgan ishingizning maqsadi va tarkibini tushuntiring va bu uchun undan ruxsat so'rang.
- (3) Kerakli vosita va anjomlarni hozirlang.
- (4) Parvarishlovchi xodimga qulay bo'lishi uchun yotoqning balandligini moslab oling.
- (5) Mijozni yonboshlating va namlik o'tkazmaydigan taglikni yotoq ustiga yoyib soling.



- (6) Mijozni orqa bilan yotqizing, belining pastki qismini ko'taring va ich kiyimni tushiring.



- (7) Yo'rgakdagi tasmani olib tashlang.
- (8) Jinsiy sohani idishdagi iliq suv bilan yuvинг.

Agar mijoz ayol kishi bo'lsa, (infeksiyaning oldini olish uchun) peshob chiqarish kanalidan najas chiqaruv teshigi tomonga, ya'ni oldindan orqa tomonga yo'naltirgan holda yuvib arting. Hatto teri burmalari bor joylarni ham yaxshilab tozalang.



Suvning harorati tana harorati bilan bir xil bo'lishi lozim. (Jinsiy soha haroratga ta'sirchan hisoblanadi.)

(9) Quruq sochiq yordamida namlikni artib tashlang.



(10) Ifloslangan yo'rgakni o'rang. Mijozni yonboshlating.




Yo'rgakning  
ifloslangan yuzasini  
ichkariga qilib o'rang.

(11) Ishlatilgan yo'rgak o'rniga yangi yo'rgak soling.

Mijoznibelibilanyotqizing va ishlatilganyo'rgakni qarama-qarshi tomon dan olib tashlang.

Ishlatilgan yo'rgak tashlanganidan so'ng qo'lqoplarni yechib tashlang.




- (12) Tasmalarni shunday yopishtiringki, bir nechta barmoqni qorin va son sohasiga kiritish mumkin bo‘ladigan darajada bo‘sh joy qolsin.



Kuchli bosim qichima paydo bo‘lishiga sabab bo‘lishi mumkin.



- (13) Belining pastki qismini ko‘taring va ich kiyimini tushiring. Kiyim va choyshabni tartibga keltiring.



Yig‘ilib qolgan kiyim yoki choyshab noqulaylik va/ yoki yotoq yara paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi.



- (14) Xonani shamollating.  
 (15) Mijozning jismoniy holati qoniqarli ekaniga ishonch hosil qiling.  
 (16) Vosita va moslamalarni olib tashlang va ishlatilgan taglikni tegishli tartibda tashlab yuboring.

## 4

# O'ziga qarashda hamshiralik parvarishi

1

## O'ziga qarab yurishning ahamiyati

O'zimizga qarab yurish deganda o'zimizni tartibga keltirishimiz, pokiza saqlanishimiz uchun yuzimizni yuvishimiz, sochimizni tarashimiz va kiyimlarimizni almashtirishimiz tushuniladi. O'ziga qarash degan faqatgina jismonan toza bo'lish degani emas. U shaxsiyatimizni ifoda etishimizga ko'maklashgan holda ruhiy mustaqilligimiz bilan bog'liqdir. O'ziga qarab yurish jamiyatda boshqalar bilan munosabat o'rnatishda katta ahamiyatga ega.



## 2 Ruh va tananing o'ziga qarash bilan bog'liq mexanizmi

O'zingizga qarashingiz – shaxsiyattingizni ifoda etish yo'lingizdir. Mijozning hayot tarzi va qadriyatlarini hurmat qilgan holda uni parvarishlash muhim ahamiyat kasb etadi. Mijoz o'ziga qarashida unga ko'maklashish uning hayotga bo'lgan muhabbatini oshiradi.

### (O'ziga qarashning ijobiy ta'siri)


- (1) Tana haroratini me'yorlashtirish va terini himoya qilishda yordam beradi.
- (2) Ruh va tana funksiyalarini yaxshilab, ko'maklashishga yordam beradi.
- (3) Qulay va xavfsiz hayotni targ'ib qiladi.
- (4) Kundalik hayotga rang-baranglik kiritishda yordam beradi.
- (5) Shaxsiyattingizni ifoda etishingizda ko'maklashadi.

### ● O'ziga qarash paytida hamshiralik parvarishini amalga oshirishda yodda saqlanishi lozim bo'lgan jihatlar


- Mijozning hayot tarzi va didi kabi shaxsiy sifatlarini hurmat qiling.
- Mavsumga mos kundalik faoliyatni amalga oshirishda ko'maklashing va h.k.
- Ruhiyat va tana holatiga mos kundalik faoliyatni amalga oshirishda ko'maklashing va h.k.

### ● Mavsumga mos bo'lgan kiyim-kechak

Yozda



Qishda



### 3 Kiyim almashtirishda hamshiralik parvarishining dolzarbliji

#### ◎ Kiyim almashtirishda hamshiralik parvarishini amalga oshirishda yodda saqlanishi lozim bo‘lgan jihatlar

- Badan terisi ochilib qolishiga yo‘l qo‘ymang va mijoz xijolat bo‘lishi mumkinligini inobatga oling.
- Mijozda shollik bo‘lsa, sog‘lom tomonidan boshlab yechintiring va shikastlangan tomonidan boshlab kiyintiring.

#### 1) O‘tirgan holatdagi mijozning ustki kiyimini kiydirish va yechish bilan bog‘liq hamshiralik parvarishi

Bu yerda misol tariqasida shol bo‘lgan mijoz keltiriladi.

- (1) Mijozning jismoniy holati qoniqarli ekaniga ishonch hosil qiling.
- (2) Mijozga qilmoqchi bo‘layotgan ishingizning maqsadi va tarkibini tushuntiring va bu uchun undan ruxsat so‘rang.
- (3) Atrof-muhitni moslashtiring. Xona haroratini o‘rnating.
- (4) Kiyim almashtirayotgan paytingizda kiyiladigan kiyimni tayyor qilib qo‘ying.  
Mijozga uning didiga mos keluvchi kiyim tanlang.



Odamlarda kiyimga nisbatan did mavjud bo‘ladi.  
Kiyim uni kiygan odamning shaxsiyatini ifoda etadi.  
Ko‘rishda kamchiligi bo‘lgan mijozga matoni ushlatib  
ko‘ring va ko‘rinishini tushuntirib bering.



## (5) Ustki kiyimini yeching.

- Mijozning o'tirgan holati barqaror ekaniga ishonch hosil qiling. Parvarishlovchi xodim uning shikastlangan tomonida turishi lozim.



Buning sababi shikastlangan tomoni nimjon bo'ladi va mijoz shikastlangan tomonga yiqilib ketishga moyil bo'ladi.

- Sog'lom tomonidan boshlab yechintiring.



Shikastlangan tomonga bo'lgan yuklamani kengroq diapazondagi harakatlarga ega bo'lgan sog'lom tomonidan boshlab kiyintirish orqali kamaytirish mumkin.

- Parvarishlovchi xodim mijoz qo'lini qimirlatishi va/yoki uzatishida qiyalsa, unga ko'maklashadi.

(6) Ustki kiyimini kiydiring.

- Dastavval mijozning shikastlangan tomonidagi qo‘lini yengga kirgizing.



(7) Ustki kiyim mijoz uchun qulayligiga ishonch hosil qiling.

- Kiyimning ichki tomonida burmalar ko‘p emasligiga ishonch hosil qiling.



Burmalar va osilgan  
qismlar tufayli kiyim kiyib  
yurish noqulay bo‘ladi.



(8) Mijozning jismoniy holatida o‘zgarish yo‘qligi va u hech qanday og‘riq sezmayotganiga  
ishonch hosil qiling.

## 2) O'tirgan holatdagi mijozning ishtonini kiydirish va yechish bilan bog'liq hamshiralik parvarishi

Bu yerda misol tariqasida shol bo'lgan mijoz keltiriladi. (1) dan (4) gacha bo'lgan qadamlar o'tirgan holatdagi mijozning ustki kiyimini kiydirish va yechish bilan bog'liq hamshiralik parvarishi bilan bir xildir.

(5) Ishtonini yechib qo'ying.

Mijozga biror turg'un narsani ushlab turishini va iloji bo'lsa, tik holda turishini iltimos qiling. Ishtonni sog'lom tomonidan boshlab yeching. (Dakken chakkan)



Oyoqni ko'tarish  
muvozanatni yo'qotishga olib keladi.



Agar mijoz tik turganida barqaror holatda bo'lolmasa, uni o'tirgan holda ushlab turing va tanasining sog'lom qismini yuqoriga bukkan holda ishtonini imkon qadar uzoqroq tarzda yeching.



Jismoniy imkoniyatlardan kelib chiqqan holda ko'maklashish mijoz yiqlishining oldini oladi.



(6) Ishtonini kiydiring.

- Mijoz o'tirgan holda qoladi va avval shikastlangan tomonidagi oyog'ini ishtoniga kirgizadi, so'ng sog'lom tomonidagi oyog'ini xuddi shu tarzda kirgizadi. Ishtonini imkon qadar yuqoriroqqa tortadi, so'ngra o'rnidan turib, ishtonini beligacha tortadi.



(7) Ishton mijoz uchun qulayligiga ishonch hosil qiling.


(8) Mijozning jismoniy holatida o'zgarish yo'qligi va u hech qanday og'riq sezmayotganiga ishonch hosil qiling.

### ◎ Orqa bilan yotgan holatdagi mijozning kiyimlarini almashtirish bilan bog'liq hamshiralik parvarishi

(1) dan (4) gacha bo'lgan qadamlar o'tirgan holatdagi mijozning ustki kiyimini kiydirish va yechish bilan bog'liq hamshiralik parvarishi bilan bir xildir.

(5) Ustki kiyimini yeching.

- Parvarishlovchi xodim mijozning shikastlangan tomonida turadi.
- Ustki kiyimning tugmalarini yeching va sog'lom tomondan boshlab uni yeching. Yechilgan kiyimlarni o'rab, mijoz tanasining tagiga qo'ying.



Sog'lom tomondan boshlab kiyimni yechish shikastlangan tomonda ortiqcha harakatlarni kamaytirishga yordam beradi.



- Mijozga sog'lom qismini pastga qaratgan holda yonboshlab olishida ko'maklashing.  
Mijoz tanasi tagidan kiyim qismlarini tortib oling.



Shol bo'lgan odamning shikastlangan tomoni pastda bo'lib qolmasligiga ishonch hosil qiling.




- Va nihoyat yengini shikastlangan tomonidan boshlab yeching.




(6) Ustki kiyimini kiydiring.

- Yengni shikastlangan tomonidan boshlab kiydiring.
- Mijoz tanasi tagiga kiyimning qolgan qismlarini qo‘ying.
- Mijozni beli bilan yotqizing va qolgan kiyim qismlarini tana ostidan tortib oling.
- Kiyimning orqa va yon qismlari badan yo‘nalishiga muvofiq bir chiziqda ekaniga ishonch hosil qiling.




- Sog‘lom tomondagi qo‘lni yengga kirgizing, tugmalarni qadang va kiyimni to‘liq tekislang.



(7) Ishtonini yechib qo'ying.

- Ich kiyimini sog'lom tomonidan boshlab yeching.
- Agar mijoz belini ko'tara olsa, shunday qilishini iltimos qiling.



(8) Ishtonni kiydiring.

- Ishtonni shikastlangan tomonidan boshlab kiydiring.
- Agar mijoz belini ko'tara olsa, shunday qilishini iltimos qiling.

(9) Ishton mijoz uchun qulayligiga ishonch hosil qiling.

(10) Mijozning jismoniy holatida o'zgarish yo'qligi va u hech qanday og'riq sezmayotganiga ishonch hosil qiling.

## 4 Yuzni yuvish, soch turmagi, tuklarni qirish, tirnoq olish va pardoz qilishda hamshiralik parvarishi

### ◎ Yuzni yuvishda hamshiralik parvarishini amalga oshirish uchun yodda saqlanishi lozim bo'lgan jihatlar

Tongda uyqidan turib yuviningizdan so'ng, teridagi kirlanishdan xalos bo'lasiz va tetiklikni his qilasiz.

- Mijoz yuzini yuvib bo'lganidan keyin, terisi qurishi oldini olish maqsadida terisini namlab turing.
- Yuzini o'zi yuvolmaydigan mijozning yuzini iliq sochiq bilan arting.



### ◎ Soch turmaklashda hamshiralik parvarishini amalga oshirish uchun yodda saqlanishi lozim bo'lgan jihatlar

Soch turmagi borasida har bir inson o'z didiga egadir.

- Soch va bosh terisi holati qoniqarli ekaniga ishonch hosil qiling.
- Soch tarash qon oqimini kuchaytiradi.
- Mijoz holatiga mos keluvchi vositadan foydalaning.



Taroqni qo'l ko'tarmagan holda ishlatish mumkin.

## ◎ Soqol olishda hamshiralik parvarishini amalga oshirish uchun yodda saqlanishi lozim bo'lgan jihatlar

Soqolni qanday parvarishlash bo'yicha har bir insonning o'z didi mavjud.

- Elektr ustaranidan foydalanganingizda, uni teriga nisbatan to'g'ri burchak ostida ushlang.
- Burmalarni taranglashtirgan holda yengil tarzda qiring.
- Olinmagan tuk qolib ketmaganini tekshiring.
- Soqol olishdan keyingi losyon bilan teringizni himoyalang va h.k.



## ◎ Tirnoq olishda hamshiralik parvarishini amalga oshirish uchun yodda saqlanishi lozim bo'lgan jihatlar

Agar tirnog'ingizni parvarish qilmasangiz, tirnoq va teri orasiga kir to'planadi va shu sohani iflos qiladi. Bundan tashqari, uzun tirnoqlar terini jarohatlaydi. Salomatlik holati tirnoqlarga ta'sir ko'rsatadi.


- Tirnoqlarni hammomdan so'ng yumshoqligida olib tashlang.
- Tirnoqlar va ular atrofidagi teri holatini yaxshi ekaniga ishonch hosil qiling.



### ● Tirnoq olgich



### ● Tirnoq egovchasi



## ◎ Pardoz qilishda hamshiralik parvarishini amalga oshirish uchun yodda saqlanishi lozim bo‘lgan jihatlar

Pardoz qilish – shaxsiyatni ifodalashdir.

- Mijozning didi va xohishlariga moslapping.
- Yotishdan oldin mijoz pardozini tozalab tashlang va terining har qanday holatini parvarish qiling.

## 5 Og‘iz bo‘shlig‘ini parvarishlash

### 1) Og‘iz bo‘shlig‘ini parvarishlashning ahamiyati

- Og‘iz bo‘shlig‘ini toza saqlashda yordam beradi, kariyes paydo bo‘lishi, parodont kasalligi va og‘izdan noxush hid kelishining oldini oladi.
- Og‘iz bo‘shlig‘idagi ko‘plab mikroblarini kamaytirishga va aspiratsion zotiljamning oldini olishga yordam beradi.
- So‘lak ishlab chiqarilishiga ko‘maklashadi va og‘iz qurishining oldini oladi.
- Ta’m bilish hissi saqlanib qolishida va ishtaha ochilishida yordam beradi.

## ◎ Tish tozalashda hamshiralik parvarishini amalga oshirish uchun yodda saqlanishi lozim bo‘lgan jihatlar

- Birinchi o‘rinda mijoz og‘zini chayishi lozim.
- Har bir tishni qisqa tez harakat bilan tozalang va birorta ham tozalanmagan tishni qoldirmang.
- Og‘iz bo‘shlig‘i holatini ko‘zdan kechiring.
- Mijozning shikastlangan tomonidagi og‘iz bo‘shlig‘iga e’tibor qarating, zero shu tomonda ovqat qoldiqlari qolib ketishiga moyillik mavjud.

Agar qonash va/yoki milk shishganligini ko‘rsangiz, tibbiyot xodimlariga xabar bering.

### ● (Oldida tomonda turgan holda) tish tozalash bilan bog‘liq hamshiralik parvarishi

Bir xil nigoh darajasida hamshiralik parvarishini amalga oshirish orqali aspiratsiya vujudga kelishining oldini oling.



## ● (Orqada turgan holda) tish tozalash bilan bog'liq hamshiralik parvarishi


Mijoz iyagini ko'tarmang, zero bu aspiratsiyaga sabab bo'lishi mumkin.



Qo'lingizni shu tarzda joylashtirishingiz mijoz boshini shunday holatda turishiga va barqaror gavda holatini ta'minlashga yordam beradi.

## ● Tish cho'tkasini qanday ushslash lozim

Tish cho'tkasini qalam ushlaganday ushlang.




Bu tishlar va/yoki milk shikastlanishining oldini oladi, chunki ortiqcha kuch ishlatalishining oldini oladi.



## ● Shimgichli cho'tkadan foydalanish

Tishlarni tozalashda tish cho'tkasidan foydalanishning imkonи bo'lmasa, shimgichli cho'tka va h.k.dan foydalaning.



Bir xil nigoh darajasida parvarishlash orqali aspiratsiya vujudga kelishining oldini oling.




## ◎ Tish protezlarini ozoda tutish va ularni saqlash

Tish protezlari tushgan tishlarning o‘rnini bosuvchi moslamadir. To‘liq va qisman tish protezlari mavjud.

- Har bir ovqat iste’mol qilgandan so‘ng ularni yechish va tozalash kerak bo‘ladi, chunki ular bakteriyalar ko‘payishiga zamin yaratadi.
- Cho‘tkadan foydalaning va oqib turgan suvda yuvib tashlang.
- Tish protezlari sinib ketmasligi uchun nam holda saqlanishi lozim. Tish protezlarini suv yoki protez eritmasi bo‘lgan idishda saqlang.
- Tish protezlarini yechganingizdan keyin qolgan tishlarni tozalang.

### ● To‘liq protezlar




Yuqori jag‘ uchun



Pastki jag‘ uchun

### ● Qismanli protezlar



## QISM 4

Kundalik parvarishni amalga oshirish uchun Ko'nikmalar

BOB 4 O'ziga qarashda hamshiralik  
parvarishi

# 5

# Yuvintirish, pokiza saqlashda hamshiralik parvarishi

**1**

## Yuvintirish/pokiza saqlanishning ahamiyati

O‘zimizdagi kirdan xalos bo‘lish va o‘zimizni pokiza saqlashimiz uchun yuvinamiz. Yuvinish yordamida o‘zimizni bo‘shashgan, tetik va qoniqish hosil qilgan tarzda his etamiz. Bundan tashqari, bu hayot ritmini boshqarishda samaralidir.

**2**

## Yuvintirish/pokiza saqlanishda ruh va tana mexanizmi


### ◎ Yuvintirish/pokiza saqlanishning ijobiy ta’siri

- Qon tomirlari kengayadi va qon almashinuvi yaxshilanadi.
- Metabolizm (moddalar almashinuvi) faollahadi.
- Bo‘g‘im va mushaklar og‘riqlarini kamaytiradi va bo‘g‘imlar harakatini yaxshilaydi.
- Oshqozon-ichak faoliyatini yaxshilaydi va ishtahani ochadi.
- Terini tozalaydi va infeksiyaning oldini oladi.
- Stressni kamaytiradi va o‘zimizni yangilangan va qoniqqan his etishimizga ko‘maklashadi.

## 1) Terining vazifalari

- Tashqi ta'sirni qabul qilib, ichki a'zolarni himoya qiladi.
- Xavfli moddalar stimulyatsiyasining oldini oladi.
- Terini ter va yog' bilan namlab turadi.
- Terlash/tana issiqligini saqlash yordamida tana haroratini boshqaradi.

### Teri va ter bezlarining tuzilishi



### ◎ Ter bezlarining turlari


Ekkrin bezlar: Butun tanadan ajraladi; ularning hidi bo'lmaydi.

Apokrin bezlari: Qo'lting ostidan ajraladi; ular hidli bo'ladi.

## ◎ Tananing tez kirlanuvchi sohalari

Ter va yog‘ ajralishi hisobiga teri kir bo‘ladi.

### ● Tez ifloslanuvchi qismlar




Oson kir bo‘ladigan sohalar – bu buklangan teri mavjud bo‘lgan sohalardir.

### 3 Yuvintirish/pokiza saqlashning dolzarbliги

#### ◎ Yuvintirish/pokiza saqlanishda yodda saqlash lozim bo'lgan narsalar

- Mijoz xijolat bo'lishi mumkinligini inobatga oling.
- Mijozning jismoniy holati qoniqarli ekaniga ishonch hosil qiling. Mijoz terisi holatini ko'zdan kechiring. Agar biror muammo aniqlasangiz, tibbiyot xodimiga xabar bering.
- Yiqilishning oldini olish va issiq urmasligi va h.k. uchun sharoitni yaxshilash.

#### ● Yuvinish muhitini yaxshilash



## **1) Yuvintirishda hamshiralik parvarishi**

### **(Yuvintirishdan avval)**

- (1) Mijozning jismoniy holati qoniqarli ekaniga ishonch hosil qiling.
- (2) Mijozga qilmoqchi bo‘layotgan ishingizning maqsadi va tarkibini tushuntiring va bu uchun undan ruxsat so‘rang.
- (3) Atrof-muhitni yaxshilang.
  - Xona haroratini o‘rnating.
- (4) Mijoz yuvinib bo‘lganidan so‘ng kiyadigan kiyimlarini hozirlab qo‘ying.
  - Mijozga o‘zining didiga mos keladigan kiyim tanlashida ko‘maklashing.
- (5) Mijozga hammom qabul qilishdan avval hojatga kirib chiqishi kerakligini aytинг.
  - Buning sababi, u hammom qabul qilayotgan vaqtida hojatga chiqish zaruratini sezishi mumkin.



Mijozlar hammom qabul qilishdan bir soat oldin va keyin ovqatlanmasliklari kerak, chunki bunda ovqat hazm bo‘lish va ichaklarda so‘rilish vazifasi buziladi. Suvsizlanishning oldini olish maqsadida mijozga cho‘milishdan oldin suyuqlik ichiring.

### **(Kiyimlarni yechish)**


Xavfsizlik nuqtayı nazaridan mijoz kiyimlarini stulga o‘tirgan holda yechadi.

- Agar mijozda shollik bo‘lsa, kiyimlarni yechishni sog‘lom tomonidan boshlab yeching va kiyintirayotganda shikastlangan tomonidan boshlab kiyintiring.



### (Yuvintirish paytida)

